

PREZIDENT TA'UM MUASSASALARI AGENTUGI
TIZIMIDAGI HALIMA XUDOYBERDIYEVA
NOMIDAGI IJOD MAKTABI



Ko'nagil qo'shiqlari

O'zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdlyeva
tavalludining 75 yilligiga bag'ishlanadi



Ko'ngil qo'shiqlari



UO'K: 821.512.133-1
KBK: 84(5O')-5
K 97

TOSHKENT - 2022



Ijodkorlar bayozi: she'rlar, hikoyalar. Ko'ngil qo'shiqlari. / – T.;
«IJOD NASHR», 2022 – 152 b.

ISBN 978-9943-8254-0-6

Ushbu to'plam O'zbekiston xalq shoiri
Halima Xudoyberdiyeva tavalludining
75 yilligiga bag'ishlanadi.

She'riyat inson ko'nglini mo'jizaviy olamlar sari yetaklovchi ilohiy xususiyatga ega. Ijodga ishtiyogi baland ko'ngillar – ezgulik elchisidir. Adabiyot bo'stonida hayot kechiruvchi bog'bonlar mashaqqatlar yo'lida manzil tomon odimlaydi.

Mazkur bayozda adabiyot bo'stonining bog'bonligiga havas qilib, zavq-u shavqqa to'llib she'riy mashq qilayotgan, hikoyalar yozayotgan ijodkor o'quvchilarining bitiklari jamlandi. Qolaversa, shoira Halima Xudoyberdiyevaning milliy ruh va hayotiy, falsafiy betakror ijod namunalari ham o'rinn egalladi.

O'ylaymizki, to'plamdan o'rinn olgan ijodkor ustozlarning she'rlari hamda o'quvchilarining ijodiy mashqlari qalbingizni oshufta etadi.

Mas'ul muharrir:
Husniddin Hayit,

Prezident ta'lrim muassasalar agentligi tizimidagi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Taqrizchi:
Tursunoy Mamatxaliqova,

Prezident ta'lrim muassasalar agentligi tizimidagi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari, oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

© «IJOD NASHR»
Toshkent, 2022

ISBN 978-9943-8254-0-6



O'zbekiston xalq shoiri
Halima Xudoyberdiyeva
tavalludining 75 yilligiga
bag'ishlanadi



IJOD MAKTABLE – MA'NAVIYAT MAKTABLE

“Adabiyot yashasa, millat yashaydi”, – degan edi ma'rifatparvar shoir Abdulhamid Cho'lpon. O'zbek adabiyotini yanada rivojlantirish – millatimiz umrboqiyliga ko'rsatilgan yuksak g'amxo'rlikdir.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 19-fevralida Sirdaryoga tashrifi chog'ida: «Yorqin iste'dod egasi, ulkan so'z san'atkori Halima Xudoyberdiyeva o'zining sermazmun, badiiy yuksak she'r va dostonlari, dolzarb mavzularga bag'ishlangan publitsistik maqolalarida aziz Vatanimiz va xalqimizga, azaliv qadriyatlarimizga mehr va sadoqat, mo'tabar ayol va ona siyemosiga ehtirom tuyg'ularini beqiyos mahorat bilan tarannum etdi. Uning yorqin milliy ruh va hayotiy falsafa bilan yo'g'rilgan betakror ijodi o'zbek adabiyoti xazinasidan, el-yurtimiz qalbidan chuqur joy egalladi», – degan purma'nno fikrlari sirdaryoliklarni ruhlantirgan edi.

Respublikamiz hududlarida faoliyat yuritayotgan ijod maktablari pirovardida ham ana shunday ezgu maqsadlar ko'zlangan. Shu ma'noda Sirdaryo bag'rida qad roslagan Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi ham qisqa vaqtda haqiqiy ma'naviyat maktabiga aylanib borayotganligini ta'kidlash joiz.

Bugun ushbu ijod maktabida 145 nafar iqtidorli o'quvchilar tahsil olmoqda. Murg'ak qalb egalariga fidoyi ustoz-murabbiylar ilm-ma'rifat sirlarini o'rgatib kelmoqda. O'tgan vaqt davomida ijod maktabida ta'lim bilan birgalikda ijodiy muhit shakllanganligi quvonarli, albatta. Nazm va nasrda ijodiy mashqlar

qilayotgan bir necha ijodkor o'quvchilarning
intilishlari umidlarimizni shu'lalantiradi...

Adabiyot bo'stonidan taralayotgan ifor ko'ngil
dunyosini bezaydi. Xalqimizning qalbini nazmiy
gullar bilan ziynatlagan, ikkinchi umrini yashayotgan
O'zbekiston xalq shoiri, "El-yurt hurmati" ordeni
sohibi Halima Xudoyberdiyeva tavalludining 75
yilligi munosabati bilan ijod maktabi o'qituvchi va
o'quvchilari ijod namunlari jamlangan bayoz muborak
bo'lsin...

Pokiza Axmedjanova,

Prezident ta'lim muassasalar agentligi tizimidagi

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi

ijod maktabi direktori



Halima Xudoyberdiyeva,

O'zbekiston xalq shoiri

DA'VAT

Kunduz yurib yozdim, tun turib yozdim,
 Yozganda ko'ksimga tig' urib yozdim.
 Dardlarimga siyoh kor qilmay qolgach,
 Qalamni qonimga botirib yozdim.

Qon aslan yorug'lik. Yorug'lan, tiz cho'k,
 Asl mard Vatanga tiz cho'kib o'tar.
Qancha qoning bo'lsa – Vatan uchun to'k,
Qancha shoning bo'lsa – Vatanni ko'tar!

VATAN BAYROG'I

Yurt bayrog'in har joygamas,
 Ko'nglingga ek. Ko'ksingni o'y.
 Ishlov bergen, yumshatib tur,
 Ildiz otsin, ko'rsatsin bo'y.

To bu bayroq, Vatan, nurlar
 Ich-ichingga ketsin kirib,
 Toki g'anim – vatanxo'rlar
 Ololmasinlar sug'urib.

Shunday o'rgat qulni, xonni,
 Uchmas qush ham uchar bo'lsin.
 To bayroqdan oldin jonni
 Bermak oson kechar bo'lsin.

SHUNCHAKI...

Men shunchaki o'ylagim kelmas,
Xayol – sharob misol qilsin sarkush, mast.
Men shunchaki kuylagim kelmas,
Ovoz pardalarim chidab bersa bas.

Qo'lingga tusharkan jajji chaqaloq,
Shunchaki sevmoqda qanday lazzat bor.
Kerak chinqirtirib o'pib, tishlamoq,
Biz ham go'daklikda topganmiz ozor.

Shunchaki sevilmoq baxti qoralik,
To'la tole uchun bu kemtik, bu kam.
Mening qalbim shunday sevgiga molik,
Bir charsillab yonay, so'ngra so'nsam ham.

Ohangga shunchaki solmasdan qulqoq,
Tarjima qilib yoz sim sadolarin.
Axir buloqmasmish tog'dagi buloq,
Ko'z yoshlarimish u ishq gadolarin.

Shunchaki kulmoq ham istehzodek gap,
Birdan qah-qah uray, cho'chib ketsinlar.
Boshlariga osmon tushganday qulab,
G'aflat bandalari yoqa tutsinlar.

Shunchaki yig'lash ham yarashmas bizga,
Uni eplar faqat yuragi toshlar.
Shunday yig'lat, hojat qolmasdan so'zga,
Qurg'oq ko'zlardan ham quyilsin yoshlari.

Shunchaki yozmoqqa ko'ngil to'lmaydi,
Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo'lim.
Shunchaki yozmoqqa chidab bo'lmaydi,
Shunchaki yozmoq bu – shoirga o'lim.



DEMAKKI, SEN SHOIRSAN

Nafaqat...
 O'tsang yozib
 Kuz yanglig' so'lib, ozib,
 Bozillagan cho'g' bosib,
 Qo'rdayam hayqiolsang,
 Demakki, sen shoirsan!

Oltinmi
 Yo olmosda,
 Tig'da yurolsang, rost-da,
 Itqitsa, oyoq ostda,
 To'rdayam hayqiolsang,
 Demakki, sen shoirsan!

Nafaqat
 Ko'tarsa xalq,
 Ko'ksingdan itarsa xalq,
 Peshonang namakob, talx,
 Sho'rdayam hayqiolsang,
 Demakki, sen shoirsan!

Nafaqat
 Zar, zo'rlarni,
 Uzsang, to'sin, to'rlarni,
 Chayqaltirsang go'rlarni,
 Go'rdayam hayqiolsang,
 Demakki, sen shoirsan!

MUQADDAS AYOL

Oshiqlaring poyingga gul otib ham bo'ldi,
 Xilvatlarda labingdan bol totib ham bo'ldi,
 Va bu haqda kimlargadir sotib ham bo'ldi,
 Sen baribir muqaddassan,
 Muqaddas ayol!

Avval: "Kel-ey, quchog'imga to'l, balq", dedilar,
 Unamading, "ayol o'zi ters xalq", dedlilar.
 Icholmagach yuz o'girib sho'r, talx, dedilar,
 Sen baribir muqaddassan,
 Muqaddas ayol!

Sen daryosan, o'pganini qirg'oq yashirar,
 Juftim bo'l, – deb chopganini har toq yashirar,
 Jannatim, – deb quvonmasdan qumloq yashirar,
 Sen baribir muqaddassan,
 Muqaddas ayol!

Asli bu bog' ermaklarning borar yeri Sen,
 Rost-u yolg'on ertaklarning borar yeri Sen,
 Asov otday erkaklarning borar yeri Sen,
 Sen baribir muqaddassan,
 Muqaddas ayol!

Chorlashganda sen kelsang, goh bekor kelsang-da,
 Mast davraga bir sarin yel, bir tor kelsang-da,
 Xor kelsang-da, nomardlarga goh xor kelsang-da,
 Sen baribir muqaddassan,
 Muqaddas ayol!



Qimtinasan, astagina ko'tarasan bosh,
Ming yillikdir ko'zingdagi javdirgan yosh,
Gunohkorlar ming-u bitta senga tegar tosh,
Sen baribir muqaddassan,
Muqaddas ayol!

Harir, xushbo'y badaningda toshlar izi bor,
Ko'kragingda egilgan ne boshlar izi bor,
Quyosh izi, kuydirgan quyoshlar izi bor,
Sen baribir muqaddassan,
Muqaddas ayol!



Husniddin Hayit

ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

HALIMA XUDOYBERDIYEVA O'GITLARI...

"Ijod maktabi o'quvchilariga"

Hozir ko'klam. Sira erinmang.
Ko'nglingizga ishlov berar payt.
Loqaydlikka bir zum berilmang,
Yaxshi emas – bo'lsangiz loqayd.

Ko'ksingizni ag'daring chuqur,
O'g'it bering yumshagan onda.
Va nurlarga to'yinsin shuur,
Nurlar olib butun jahondan.

Mashaqqatning arig'in oching,
To'lib oqsin har oqar chog'i.
Ezgulikning nurini soching
Ma'rifatning yaratib bog'in.

Va o'stiring hislar gullarin,
Yuragingiz bo'lsin – ilhomzor.
Tarating dil mushk-u anbarin,
Axir xalqning ehtiyoji bor.



Xushbo'y ifor ko'tarsin ruhni,
Shodlantirsin – chekinsin g'amlar.
Va yashasin sezmay anduhni,
Bezak taqsin dillarga chambar.

Kun o'tkazing doim shu o'yda,
Hamroh bo'lsin – ilohiy hislar.
Hayot davom etsin shu ko'yda,
E'zozlasin sizni muxlislar.

Barcha imkon mujassam sizda,
Hech birini boy bermang qo'ldan.
Hayot aro yurganingizda
Yuring faqat ijodiy yo'ldan.

Nasihatim – da'vatim ham shu,
To'xtatmangiz alyor – bayotni.
Iforlarni taratib mangu –
Yuksaltiring adabiyotni.

ISHTIYOQ QO'SHIG'I

Yurakda jo'sh urar cheksiz ishtyoq,
Quvonchlar otilar favvora kabi.
Ezgu maqsadlarni gullatar har chog' –
Ishtyoq maktabi – ijod maktabi.

Ro'yobga aylanar xayoliy shuur,
Teranlashib borar dillarning ta'bi.
Mudom ko'nglimizga bag'ishlar surur,
Ishtyoq maktabi – ijod maktabi.

Yurar yo'limizda so'z yo'ldoshimiz,
 Dilni oshiq qilgan Yurtimiz kabi.
 Ko'klarga yetkazar g'urur – boshimiz,
 Ishtiyoyq maktabi – ijod maktabi.

Har lahza porlagay otashin ijod,
 Valekin yuksalar qalblar matlabi.
 Yaratar betakror – ijodiy hayot,
 Ishtiyoyq maktabi – ijod maktabi.

Yurakda jo'sh urar nurli ishtiyoyq,
 Sevinchlar otilar favvora kabi.
 Go'zal maqsadlarni gullatar har chog' –
 Ishtiyoyq maktabi – ijod maktabi.

TUPROQHIS...

Yurakning eng chuqur yerida toki,
 mangu unutilmas – ilg'amoq mumkin,
 kindik qon to'kilgan tuproqhis hokim –
 har lahza hukmini o'tkazar chunki:

Bir zum ham tark etmas – qo'riqchidir chin,
 jonga qafas ekan o'lguncha to tan,
 vale Vatan – tuproq ostidagi in,
 jonsiz tanni ham so'ng qo'riqlar zotan.

Va shundan dimoqqa o'rashib olgan:
 sergak qilib turar jannatona is,
 yarqiroq dillarga Yaratgan solgan –
 qismatni bezagan ziynat – tuproqhis.



NURSO‘Z...

Ko‘z ilg‘amas nurlar mudom yurar kezib,
sinchilarning nishonida ko‘rsatib bo‘y,
sezimlarsiz hech birini bo‘lmas sezib,
gar shunchaki bo‘lavversa surilgan o‘y.

Xayollarning tub-tubida yashar mantiq,
bilinmagan – ko‘rinmagan anglam yotar,
izlamlarning mohiyati dilga tansiq
va nogahon ixtiroli his uyg‘otar.

Sado kelar tuyg‘ularda jilvalanib,
mo‘jizalar kashf etilar lahza sayin,
shuurimga singib bordi har bir ma’ni,
o‘zlashtirdim va qo‘ymadim indamajin.

Bu hayotda ziynatlangan tonglar – ilinj,
qurshab olsa – rangli – rangsiz turfa dunyo,
yo‘l bermasa yo‘llaringda nur – tiqilnch,
nurso‘zlardan bir tushuncha bo‘lar bunyod.

Ajdodlardan qolgan meros hamroh toki,
kun kechirar izmimizda kutganimiz,
har harakat haddimizda bo‘lsa – hokim,
chin yurakdan Nurso‘zlarni yutganimiz.

Qismatimga payvand erur ilohiy So‘z,
men ishqida aqlimdan ham ozib bo‘ldim,
neki bo‘lsa – hukm etdi borini O‘z,
bilganimni yuraklarga yozib qo‘ydim.

Bilganimni tilaklarda yozib qo‘ydim...

NURO'YLAR...

Oq ko'yakni kuydirgan kabi
yuragimga dazmolni bosib,
so'ng davolab bo'lding sen – tabib:
dildardimga darmon – munosib.

G'ijimlangan dog'lar nurlandi,
porlab go'yo ishqning quyoshi
va shu kundan men huzurlandim,
har sevinchning bo'lib dildoshi.

Shu paytgacha qolib g'aflatda,
qaynoq taftni sezmay o'sdimmi,
o'chib qolmay endi daf'atan,
qizdirib tur tinmay ko'ksimni.

Va harorat yoz fasli misol
nurhavoday aylanib yursin,
mangulikka yo'g'rilib visol,
saodatlar ularshib tursin.

Qorishganda tongga dildunyo –
nurga ko'ngil burkanib tengsiz
va tuganmas hayot qil bunyod –
men yasholmay hech qachon sensiz.

Sen yasholma hech qachon mensiz,
dazmol qilib ishq – ko'ylagimni
va ko'rsatib tuyg'ulardan iz,
tark etmagin nuro'ylarimni...

NURISHQ...

Beixtiyor
 o'ylayman, ya'ni
 dilga surur solganda soya
 va qolaman,
 so'zsiz: suyanib –
 ishq – Ollohdan tuhfa, inoyat.

Tonglar
 tashrif etar ko'ngilga,
 orolanar hayot dunyosi,
 tuyg'ularim anglab
 va bilgan –
 mammunlikdan murodi hosil.

Shukuhlanar
 pinhoniy sezim,
 ilg'anilmay ko'ngil tubida
 va tinmayin
 aylanib – kezib,
 nur taratar oy uslubida.

Shu'lalanib
 lahzalar daydir –
 chek qo'yilar beqarorlikka
 va yakuniy
 Nurso'zni aytib,
 quyosh sovg'a qilar borliqqa.

Va nihoyat
 nurlar otlig'i –

bo'y ko'rsatar shakliga kirib,
botinimda
botiniy yig'in –
muhokama qilar nur sirin.

Chin Nurishqning
kuch-qudrati shu –
sadoqatga mangu munosib
va undirar
izhor – atirgul,
qilib yorug' ko'ngilzor hosil.



Shohsanam Qarshiyeva

ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi



MUHABBAT MASH'ALASI...

Jism-u jon titranib, nurab borsa ham,
Bu yolg'iz dilxonam qulab borsa ham,
Ajal tandan jonom so'rab borsa ham,
Ota, men sen uchun yashashim kerak.

Xavotir tig'lari ko'zlasa boshim,
Sirlarimni sochsa saxiy sirdoshim,
Holim so'ramasa umr yo'ldoshim,
Ona, men sen uchun yashashim kerak.

Toshlaring zarbidan yuragimda qon,
Tilimga in qurib yashasa chayon,
O'lib qutilmoqqa bo'lmasa imkon,
Ey do'st, men sen uchun yashashim kerak.

Kunduzim qorong'i, tunlarim bedor,
Vujudim chalajon, yuragim bemor,
Bo'lsa gar darddoshim dardimdan bezor,
Bolam, men sen uchun yashashim kerak.

Bitta bayt yozmoqqa topolmasam so'z,
Ko'rib-ko'rmaslikka olaversa ko'z,
Bog'imda gul unmay, yerim qolsa bo'z,
Vatan, men sen uchun yashashim kerak.

SEN MENI SEVASAN...

Chiqillab ezilgan eski soatdek,
Uchib borayotgan chavandoz otdek,
Majnundek, Bahromdek, xuddi Farhoddek,
Sen meni sevasan, bilsang – bilmasang.

Yer bag'riga otilgan xasta xazondek,
O'chog'idan ko'chmas qora qozondek,
Bilganidan qolmas qaysar zamondek,
Sen meni sevasan, bilsang – bilmasang.

Axir tushimda sen menga qarading,
Kipriklarining bilan sochim tarading,
Shu kecha bir qaro tunga yarading,
Sen meni sevasan, bilsang – bilmasang.

O'zimdan o'tganin bilaman o'zim,
Ashk daryosida oqdi-ku ko'zim,
Hoy-u havas, yolg'on bo'lmasin so'zim,
Sen meni sevasan, bilsang – bilmasang.

KUZ

Sinovlarda pishgan kelinchak,
Kuzning husni ortar tobora.
Xazonlardan bezangan yo'lak,
Faqat kutish bilan ovora.

Sinovlarda pishgan kelinchak,
Kuzning oshi dunyoga tortiq.
Yuzi so'lg'in, sochlari patak,
Tuzlug'iga tupurar borliq.



Sinovlarda pishgan kelinchak,
Ko‘z yoshini berkitib yurar.
Bo‘kib ichgan zolim er, beshak,
Qamchisida savalab turar.

Sinovlarda pishgan kelinchak,
Parvo qilmay uyadi xirmon.
Umri tugamasdan ulgurish kerak,
Yonida yalpayib yotibdi armon.

Bo‘yalmagan kuzning sochlari,
To‘kiladi qadoq qo‘liga.
Befarq, behush, bemehr dunyo,
Bitta gul ham tutmas yo‘liga.

Bor-budini ularshgan kelin,
Yalang‘och quvildi, yalangbosh.
Kelin tushdi oy misol to‘lin,
Oppoqqina, biroq bag‘ritosh.

* * *

O‘ylar edim seni har tongda,
O‘ylarimni it g‘ajib ketdi.
Tongim otmay qolgan har onda
Derazamdan tosh otib ketdi.

Ko‘nglim qoldi sening ko‘changdan,
Bog‘laringga ko‘zim tushmasin.
Menga ekkan o‘sha olchangdan
Tishlab qo‘yib, hushim uchmasin.

* * *

Izg'irin sovuqdan qaqshadi yuzim,
Qo'limga tushgan qor – bevafo, qochqoq.
O'zimning ko'zimga o'xshamas ko'zim,
Ko'zguga qarasam, sochim ham kamroq.

Men seni sevardim, sevimli faslim,
Bo'ronli kunlaring kirmasdi dilga.
O'zimni izlayman, qaydasan, aslim,
Sovuq ko'chgan dilim senga intilgan.

O, sevimli faslim, buncha yoqimsiz,
Oppoq qorlaring ham nursiz va xira.
Olovli hislarim, nega siz jimsiz,
Bu kunim kunlarga o'xshamas sira.

Bildimki, bu qishda seni yo'qotdim,
Izingni ko'rdim-u, qol, deyolmadim.
Menga hokim bo'lgan yurakni sotdim,
Mayli, qiynoqlarga sol, deyolmadim.

Quddus Asad

ijodiy to‘qarak
rahbari



SHUNCHAKI...

Shunchaki kelmaydi dunyoga odam,
Shunchaki tug‘maydi ona dard chekib.
Yaxshilik qilmoqlik kerakdir har dam,
Olamga ezgulik urug‘in ekib.

Shunchaki qichqirmas xo‘roz ham sahar,
U hayot zangini chaladi nogoh.
Shayton g‘aflat uzra tutganda zahar,
Basharni fitnadan etguvchi ogoh.

Shunchaki berilmas dard-u g‘am, g‘ussa,
Shunchaki berilmas ayriliq, motam.
Qachonki boshiga ko‘rgulik tushsa,
G‘am cheksa, Xudoni eslaydi odam.

Shunchaki berilmas mustaqil zamin,
Ajodolar shunchaki to‘kishmadi qon.
Er yigit ko‘tarar el-yurtning g‘amin,
“Vatan” – der vujudin tark etguncha jon.

Shunchaki tilda ko'rк olmasin Vatan,
 Yurt uchun qilmoqlik kerak jon fido.
 Dunyoga shunchaki kelmadik zotan,
 Shunchaki ketmoqdan asrasin Xudo.

* * *

Oy yuzida dog'lanadi dard,
 Sil ko'ksida ne hislar kechar?
 Kuzsoatda tugab borar vaqt,
 Zamin yashil libosin yechar.
 Tabiat jon tutar paydar-pay,
 Cho'kka tushar sarg'aygan ko'yи.
 Sirkda o'yin qilmas bo'riday
 Faqat archa egmaydi bo'yin.
 Alla aytar, kuz xayr-xo'shlab,
 Mudroq bosgan borliq alahlar.
 Sochlarni qirib-qirtishlab,
 Tik turib jon berar daraxtlar.

IZTIROB

Boshini xam qilib o'tadi kunlar,
 Ko'zlarin nam qilib o'tadi tunlar,
 Bitta SO'Z – umrimga kifoya, illo
 Men badbaxt, holimga yigil maymunlar!
 Hislarim betizgin, zindonband tilim,
 She'rsizlik o'limdir,
 She'rsizlik – o'lim!

Ochun hislarimni to'ymaydi talab,
 Kimdan olmoq bilmay halakman o'chim.



Ko'ksimni tashlayman har tun nimtalab,
O'zligim anglashga yetmaydi kuchim.
Yo'qlikka do'nmoqda o'ngjim-u so'lim,
She'rsizlik o'limdir,
She'rsizlik – o'lim!

O'ylarim beshafqat, olar intiqom,
To'kilib boraman bargdek sarg'arib.
"Najot" deb qo'l cho'zsam, tutmaydi ilhom,
Har tomon chopaman, to'rt tomon – g'arib.
Manzilim noayon, parishon yo'lim,
She'rsizlik o'limdir,
She'rsizlik – o'lim!

Mening dunyolarim, senga yot, dildor,
Men uchun xayolot – eng so'lim bistar!
Har bir tun mo'jiza kutgancha bedor,
Jon qushim hayotbaxsh bir so'zga muztar.
O'ldirsa, so'zsizlik o'ldirar, gulim,
she'rsizlik o'limdir,
she'rsizlik – o'lim!

OTAMGA MAKTUB

Ota, bo'lomladim senga munosib,
Men bir xayolparast, noshud va daydi.
Bir yigit umrini xazondek sochdim,
Bu umr badalin to'lab bo'lmaydi...
Nega ermak qilar bu razil hayot?
Nega bergenlari bunchalar taxir?
Horigan yelkangga bo'lmadim qanot,
Mendan umidlaring ko'p edi axir.

Sening orzularing hali ham dog'da,
 Qordek oq nuqsiga oralagan tim.
 Men xudbin o'zim-chun yashagan chog'da,
 Ota, sen men uchun yashab berding jim.
 Yoshliging men sabab kun ko'rmadi, kun!
 O'ksinib yig'laydi, ko'z yoshlari ol.
 Men – telba, she'rimga so'z izlagan tun,
 Senchi pul izlading xorijda behol.
 Vaqt esa aylanar, seskanmaydi dil,
 Nigohing so'zlamay jim tursin, ota.
 Qadding egilganin sezmagan, g'ofil,
 Shoir yuragimni jin ursin, ota,
 Shoir yuragimni jin ursin, ota!

* * *

Nigohimiz tutashar sekin,
 Ko'zlariningda jilvalanar sir.
 Menga shodon kulasan, lekin
 Qalbingda jim yig'laydi yomg'ir.
 Tomog'ingda ingraydi nolang,
 O'ksinasan, deyolmaysan lom.
 Bir so'z desang, guliston olam,
 Bir so'z desang, barchasi tamom.
 Silkinadi ko'krak qafasing,
 Dard siqadi, sekin uflaysan.
 Erk istaydi bo'g'iq nafasing,
 So'z aytmoqqa og'iz juftlaysan.
 Jonim, qalbing axir ishq talab,
 Jon saqlaydi hayotbaxsh nido!
 Ko'ksimizga otashlar qalab
 Va axiyri uchdi: "Alvido".



So'ng... yashirding yuzingni darhol,
Zamin uzra to'kildi gavhar.
Men o'zimni yo'qotdim behol,
Xayollarim uchdi darbadar.
Imkon bermay umid yoqmoqqa,
Uyg'otmoqchi bo'lasan nafrat.
Menga yana kulib boqmoqqa,
Bir amallab topasan jur'at.
Yo'llarimiz olislar sekin,
Ayon bo'ldi men bilmagan sir.
Menga shodon kulasan, lekin
Qalbingda jim yi^g'laydi yomg'ir.
Qalbimda jim yi^g'laydi yomg'ir.



Elyor Xolmurod

matematika fani
o'qituvchisi

DUNYO TURGUNCHА...

Tilsa – tilsin, xasta yuragim,
Rozi bo'lay, mayli, kulguncha.
O'yib olsin so'nggi tilagim,
Baxtli bo'ling, dunyo turguncha.

Kelar-ketar qayg'u – o'ylarim,
Sellanaman xayol surguncha.
Imkon bering – daydi ruhimga,
Yashab bo'lmas dunyo turguncha.

Olis-olis, go'zal gulyorim,
O'lsam edi, buni ko'rguncha.
Zorman sening shirin so'zingga,
Sevib yashay, dunyo turguncha.

Uzil-kesil hal bo'lmas taqdir,
Sevib yasha, toki o'lguncha.
Havo bering, nafas yurakka,
Hech kim qolmas, dunyo turguncha.



SEVOLMASAM...

Nima qilay sevolmasam,
 Sevgi atrin sezolmasam,
 Ko'nglingga yo'l topolmasam,
 Nima qilay, sevolmasam?

Kulay, bugun soyam ko'rib,
 Aytay, senga so'zlar suyib,
 Yig'lay, to'yib bor-ku vaqtim,
 Kuylay, ushbu qo'shiq - baxtim.

Sevib meni, mayli, alda,
 Ayb berib Layli yo'lida,
 Kuyib sevib, sevgi – yo'lida,
 Qolib ketdim bu cho'llarda.

Jo'shib aytay senga sado,
 Qilding meni yo'lida ado,
 Bilib qo'yki, bo'lsa gado,
 Sevib, seni sevolmasam,
 Sevolmasam, sevolmasam.

KO'ZLARIMNI YUMAMAN

Mayli, taqdir jo'natsin,
 Qanchadan qancha jazo.
 Yuragimni kuydirlsin,
 Qoldirlsin toza havo.
 Men-ku yashnab yashadim,
 Endi dushman yashasin.

Menga kelgan baloga,
Ko'zlarimni yumaman.

Sevishganlar sevishar,
Orzulari – bir olam.
Hasadgo'ylar to'xtamay,
Kimlarni yo'ldan urar.
Men-ku bir bor adashdim,
Qo'lin bermas tirik zot...

Yirtqichlar ham yeyishib,
So'ngra do'st bo'lib qolar.
Nega inson ko'rolmay,
Bir-birini yo'q qilar?
Bularni ko'rар ko'zim,
Ko'r bo'lsa ham roziman,
Menga kelgan baloga,
Ko'zlarimni yumaman.

**Sevinch
Akramjonova**

10-sinf o'quvchisi



**“ONAM YODI”
SHE'RIGA NAZIRA**

“Bolaligim. Avji saraton.
Dala. Tog‘-u toshlar kuymakda.
Onam ishga otlanadi tong,
Rangi o‘ngib ketgan ko‘ylakda”.*

Shamol yuzin mayin siypalab,
Ko‘zda yoshni artib yeladi.
Va samoda suzgan bulutlar,
Qo‘shilishib bag‘rin tiladi.

Rangi o‘ngan o‘sha ko‘ylakda,
Onam hamon yo‘lda boradi.
Qo‘llariga bitilgan chiziq,
Haqiqatga dardin yoradi.

Yuragimning dard nolasini,
Kuyga solar asl sozanda.
Ammo onam allalarini
Chala olmas hech navozanda.

*Halima Xudoyberdiyeva satrlari

Eshitaman tovushlarini,
Sayroqi qush yoqar baridan.
Sovg'a qilgan kitoblari-yu,
Rangi o'ngan ko'yaklaridan.

Hayot charxi aylanaverar,
Oqqan daryo oqmay qolmaydi,
Vaqt o'z hukmin o'tkazaverar,
Ammo unda onam bo'lmaydi.

O'LKAMDA BAHOR...

Bahor bir-la o'lkamga,
Fayz-u kamol xush keldi.
O'rinn qolmadi g'amga,
Quvonch shamoli yeldi.

Bu tashrifdan bor olam,
Yo'l ochdi hissiyotga.
Kulib boqar gullar ham,
Chorlab dilni ijodga.

Hatto musaffo osmon,
O'zin shodon sezadi.
Ko'zi yoshlanib bu on,
Bulut ko'kni kezadi.

Kuy yaratib teraklar,
Chalib boshlar navosin.
Entikadi yuraklar,
Topib dardga davosin...



Marjona Abdumalikova

10-sinf o'quvchisi



“ASRA ONAJONIMNI” SHE'RIGA NAZIRA

“Unut, ming g'am, dard chekdim,
Unutdim tik shonimni.
Faqat Olloh, tiz cho'kdir,
Asra onajonimni!”*

Bo'lsa ham menda gunoh,
Doim olgan yonimni.
Ozorlar berdim nogoh,
Asra mehribonimni!

Tunlari bo'lgan chiroq,
Ham quyoshim, ham oyim.
Yuragida ko'kdir dog',
Asra uni, Xudojim.

Bemor bo'lsam tunlari,
G'amlar chekkan ziynatim.
Baxtim o'ylar kunlari,
Asra mening Jannatim.

*Halima Xudoyberdiyeva satrlari

Ming sinov berdi hayot,
 Dardlar chekkan – bedorim.
 Men uchun bitta najot,
 Asra, Parvardigorum.

Ozorlar berdim har dam,
 Hayotdagi panohim.
 Men uchun yashar onam,
 Asra har vaqt, Ollohim.

ONAM

Ona – hayotdagi oppoq, pok niyat,
 Ona – zulmartlarni yoritguvchi sham.
 Sizsiz g'arib go'yo bu kun she'riyat,
 Ruhingiz shod bo'lsin, Halima onam.

Mana dorilomon kunlar keldi-ku,
 Shularni o'ylayman, ko'zlarimda nam.
 Da'vetingiz tinglab, dillar yeldi-ku,
 Qaylarga ketdingiz, Halima onam.

Bugun yozilmoqda sizga ming bayot,
 Yozmoqda she'rlarni mo'jaz bir qalam.
 Ijod olamida kechirib hayot,
Qalamni qoniga botirgan onam.

Mana nomingizga ochildi maktab,
 Siz yo'qsiz mактабда, goh qilar alam.
 Sizning so'zлarinigiz misoli oftob,
 Bu yorug' kunlarni ko'rmagan onam.



Ijod maktabimiz nurlar sochmoqda,
 Shukur, ijodkorlar yig‘ilishgan – jam.
 Nurlar og‘ushida g‘uncha ochmoqda,
 Sizdek bo‘lmoq istab, Halima onam.

XOTIRA

Urush! Noming o‘chsin jahonda!
(Zulfiya)

O‘tdi qancha yillar, taqdirlar,
 Urushning ham so‘ndi mash‘ali.
 Chidolmadi tog‘lar, adirlar,
 Chidadi-ku o‘zbek ayoli.

Urush odamlarning boshiga
 Og‘ir, qora kunlarini soldi.
 Ajdodlarim tuhmat toshiga
 Urush sabab ko‘milib qoldi.

Qora xatlar keldi onaga,
 Faryod chekar, ko‘zlarida yosh.
 Go‘yo kirdi zulmatxonaga,
 O‘sha kundan egildi-ku bosh.

Bobolarim Vatanim uchun
 Kurashdi, jang qildi qon yutib.
 Yengilmadi, ko‘rsatdi kuchin,
 Qo‘llarida bayrog‘in tutib.

Urush, olib qo‘yding ajdodim,
 Sening noming o‘chsin olamdan.
 Eshit endi mening faryodim,
 Ne istading million odamdan.

Sen yo'qolding, farovon kunlar
 Qaytdi osoyishta, tinch hayot.
 Qaytdi yana qo'rquvsiz tunlar.
 Sendan qoldi dahshatli bir ot.

Xalqim, qaytdi tinchliging mana,
 Kunlarimni shukurdan boshlay.
 Vatanimda har kun tantana,
 Ajdodlarim xotirlab yashay...

YURT POSBONLARI

Uxlamagan tunlari hatto,
 Olmagandir kunduzi ham tin.
 Vatan uchun jonini berar,
 Asragaydir o'lkasin, yurtin.

Qaddi baland, sergakdir, qo'rqlas,
 Temur kabi mard, jasur posbon.
 Bizdek xalqning baxtiga doim,
 Bo'ling shunday mag'rur va omon.

O'g'lonlari jasur Vatanning,
 Osoyishta kuni bo'lajak...
 Gullab turgan go'zal chamanni,
 Qarshi olar porloq kelajak.

BUVIM KELYAPTI...

Ko'zlarida pinhon qayg'u aks etgan,
 Qayg'ulari xuddi yulduzga yetgan,
 Axir jigarbandi samoga ketgan,
 Jiydaning yonida buvim kelyapti.



Ko'nglida juda ko'p sog'inchlari bor,
Chakkasida sochlar go'yo oppoq qor,
Endi tuyuladi dunyolar ham tor,
Jiydaning yonida buvim kelyapti.

Farishtadek o'g'li ketdi osmonga,
Shundan so'ng to'ldi-ku yuragi qonga.
Ilinj bilan boqar falak tomonga,
Jiydaning yonida buvim kelyapti.

O'g'li uchun berar hatto jonini,
Berar umridagi qolgan onini.
Aybi bo'lsa har dam olar yonini,
Jiydaning yonida buvim kelyapti.

DO'ST

Do'stlik degan rishtani,
Balki, ko'plar bilmaydi.
Chin do'stlar o'z do'stiga,
Yomonliklar qilmaydi.

Zamonaviy do'stlarni,
Ko'rib hayron qolaman.
Yomonliklarin ko'rib,
Yaxshiliklar olaman.

Ba'zi bir do'stlar doim,
Bir-biriga hasadda.
Soxtalik-la do'stlashar
Foydalanish maqsadda.

Bu qandayin do'stlik deb,
 Qoladi ko'zim hayron.
 Asosiysi, men faqat
 Boray chin do'stlik tomon.

Lekin ba'zi-ba'zida,
 Uchraydi chin do'stlar ham.
 "Chin do'stga yaxshilik qil",
 Deya ta'kidlar onam.

Afsuski, bu hayotda
 Do'st topmadim hali ham.
 Menimcha, asl do'stim –
 Mehribon, go'zal onam.

EZGULIK ELCHISI...

Qorong'i yo'llarda boryapman yurib,
 Har taraf zimiston – nur ko'rinas on.
 Gohida turli xil xayollar surib –
 Ziyo istar qalbim – mushtoqdir hamon.

O'nqir-cho'nqir yo'lda tushdim yiqilib,
 Tushkunliklar chulg'ab oldi o'sha on.
 Oyoqqa turmadim – yotdim siqilib,
 Qorong'i tunlarda zahmat chekib jon.

Faqat nursizlikda yotganda yig'lab,
 Qo'limdan ohista tutdi bir inson.
 Va ziyoralar timmay shuurim chulg'ab –
 Nurlana boshladi yuragim shu on.



Meni asraganda – avaylab shu dam,
Go'zal xayollar ham ketdi qorishib.
Holim yaxshilanib – yo'qolganda g'am,
Qorong'u qalbim ham ketdi yorishib.

Shu inson tufayli baxtliman har chog',
Shu inson men uchun eng ulug' inson.
Hamisha asrasin – Yaratgan Olloh,
Shogirdlar baxtiga yashasin omon.

Bu buyuk insonni sevadi xalq ham,
Va boshini egib – qilgaydir ta'zim.
Dilda ezgulik qilgan mujassam,
Buyuk ustozimdir – suyuk ustozim.

BURCH

Do'stim, yurtimizni gullab-yashnatib,
Mudom ezgu yo'llar tomon ketaylik.
Ilm-u hunarlarni barin o'rganib,
Amir Temur ruhini shod etaylik.

Ullkan zafarlarni qo'lga kiritib,
Yurtimiz bayrog'in oyga eltaylik.
Doim oqilona ishlar yuritib,
Amir Temur ruhini shod etaylik.

Adolat bayrog'in qalbda quchoqlab,
Ezgu marralarga har vaqt yetaylik.
Dono xalqimizning ishonchin oqlab,
Amir Temur ruhini shod etaylik.

Birga kurashamiz, yengamiz birga,
Bir tan – bir jon bo'lib, olg'a ketaylik.
Birlashmoqni bizga meros qoldirgan,
Amir Temur ruhini shod etaylik.



Muxlisa Hamidjonova

10-sinf o'quvchisi

"YO'LDADIRMAN" SHE'RIGA NAZIRA

"Siz kutasiz. Menam boraman.
Uchib boradurman xuddi o'q.
Faqat... oldin xat yuboraman,
O'sha xatni yozganimcha yo'q".*

Onajonim, sog'indim sizni,
Iloj bo'lsa, borsaydim uchib.
Quvontirib yuragingizni,
Bo'yningizdan olardim quchib.

Lekin o'sha maktubimni ham
Jo'natmoqqa topmadim fursat.
Siz kechiring, mushtipar onam,
Xat yozishga kechikib yursam.

Lekin, albat, aziz onajon,
Qalbingizga mehrim solarman.
Yoningizga yetib borgan on,
Mehringizni quchib olarman.

*Halima Xudoyberdiyeva satrlari



SEVGI SADOQATI

Hamid Olimjonga Zulfiya nomidan

“Suyish kerak bo’lsa – telbacha suydim”,*
 Qalbimni tutqazdim uning qo‘liga.
 Qalbimning tubiga dardlarim ko‘mdim,
 Yo‘l topay deb uning nozik ko‘ngliga.

Yosh boshimga tushdi ne-ne savdolar,
 Bu ishq qildi meni adoyi tamom.
 Ayting, ishq dardiga bormi davolar?
 Sevgimga yetmadim men hali hamon.

Yashab boradirman – umrim o‘tmoqda,
 Umrin o‘tgan sayin yaqin boraman.
 Balki, qalb sohibim meni kutmoqda,
 Lekin sog‘inchlardan dili poraman.

Hayotda qalbi pok insonni suydim,
 Yashagan bo‘lsam-da ba’zan noshukr.
 Neni ko‘rgan bo‘lsam, yaxshiga yo‘ydim,
 Sabot-sadoqat-chun, Tangrim, tashakkur!

JARAYON

She’r yozmoqqa qildim ahd,
 Sarlavha topib avval.
 Qog’oz, qalam bari taxt,
 Ilhomim kelgan mahal.

*Zulfiya Isroilova satrlari

Qofiya, vazn, turoq,
 Yetaklar maqsad sari.
 Kayfiyatni qilar chog',
 Ilhomim do'st singari.

O'yga tolaman shu dam,
 Vaznni o'lchab tez-tez.
 Fikrlarni qilib jam,
 Misra tizaman shu kez.

Bo'g'inlarni sanayman,
 Bitta-bitta barini.
 Va so'zlarni tanlayman,
 Olib zarurlarini.

Yalqovlikni unutib,
 Qofiyalar izlayman.
 Sabr-toqat-la kutib,
 Eng sarasini ko'zlayman.

Axir ijod hamrohim,
 She'r yozmasam bo'lmaydi.
 Vale timmaydi ohim,
 Va ko'nglim ham to'lmaydi.

Aytganimday she'rim ham,
 Tugab bormoqda mana...
 Ilhomim bilan bu dam,
 Biz boshlaymiz tantana.



ONA QALBI


Olis-olislarga termilgan ko'zlar,
 Tinim bilmay sog'inch haqida so'zlar,
 Xomush ko'rinadi – ma'yusdir yuzi,
 Farzandini o'ylar kecha-kunduzi.

Horg'in ko'zlaridan to'kilib ko'zyosh,
 Yuragiga qayg'u-hasrat in qurar.
 Chuqur botib borar bo'lib go'yo tosh,
 Onaning dardini yangilab turar.

Axir bu mushtipar onadir – o'sha,
 Farzandin yuborgan o'tli janggohga.
 O'g'li bilan birga qalbini qo'sha,
 Jo'natgan urushga – ayovsiz chohga.

Urush tugadi-yu, lekin onaning,
 Yolg'izgina o'g'li qaytmadi bu kun.
 Va fayzin yo'qotib dil koshonaning,
 Bag'rida uyg'otgan sog'inchlardan un.

Shu o'ylar onaning yuragin ezar,
 Tinimsiz chorasiz ko'nglini kezar.
 Xomush ko'rinadi – ma'yusdir yuzi,
 Farzandini o'ylar kecha-kunduzi...



Dilafruz Gofurova

10-sinf o'quvchisi

KO'NGIL SO'ZI...

Tinchlik garoviga tikib tan-u jon,
Va sergak turolsa hamisha, har on,
Yurtning xizmatida bo'lsa har o'g'lon,
Qolar dorilomon kunlar abadiy...

Hamisha asrasa aziz vatanni,
Unutib qo'ymasa shavkat-u shanni,
Har dam qalqon qilsa vujud-u tanni,
Qolar dorilomon kunlar abadiy...

O'g'lonlar burgutdek marra ko'zlasa,
Shijoat haqida yurak so'zlasa,
Dillardan tinimsiz mehr qo'zg'alsa,
Qolar dorilomon kunlar abadiy...



Muxlisa Rajabaliyeva

10-sinf o‘quvchisi



“MEHRIBON ONAM...”

SHE'RIGA NAZIRA

“Onam mening, mushfiq, mehribon onam,
Qalbimda – ovozing, o‘zing – qayerda?
Quyosh og‘ushiga solganmi olam?
Shu’laday odiming qaysi asrda?”*

Ayladimi yoki sahrolar asir?
Qoldingmi noiloj olis manzilda?
Makon ayladingmi jumlayu qasr,
So‘ngsiz armonlarni qoldirib dilda?

Onam mening, mushfiq, mehribon onam,
Nahot, tark aylading yorug‘ olamni?
Ijodkor qalbimga tutqazib qalam,
Yurakda uyg‘otding nechun alamni?

Ochiq senga bugun jannat eshigi,
Farzandlar qalbida yashaysan mudom.
So‘zlaringdir boqiy sabr beshigi,
Ruhlaring shod bo‘lsin, aziz onajon!..

*Zulfiya Isroilova satrlari

ONAMGA

Ona...

Bag'ringizga qo'yib yotay bosh,
Taftidan rohatni tuysin hislarim.
Ko'ngil osmonida porlasin quyosh,
Sizsiz samoyimning oyi ham yarim.

Ona...

Boshingizga bo'layin ro'mol,
Doim bo'yningizdan quchibon mahkam.
Toki sochingizni tortmasin shamol,
Ko'zingizni o'pay, bo'lsa agar nam.

Ona...

Yomg'irni xo'p ko'rasizda xush,
Qani edi, tomchi bo'lsaydim, zora.
Bir on, q'amlaringiz qilib faromush,
Dardli qalbingizni shodlikka o'rab.

Ona...

Men-chi, kimman?
Beqalb, bir dilkun,
Hech narsa bermagan, na quvonch, na baxt.
Mendayin bir xudbin, jafokash uchun,
Umrингiz baxshida etdingiz,
Rahmat.



Fauziniso Irisqulova

10-sinf o'quvchisi



“VATANDIR BU”
SHE'RIGA NAZIRA

“Olloh, Olloh eranlarning
So'zi qolgan vatandir bu.
Bo'zlab o'tgan to'rg'aylarning
Bo'zi qolgan vatandir bu.”*

Xalqi uchun jonin bergen,
Orin bergen, borin bergen,
Har lahzada qonin bergen,
Shoni qolgan vatandir bu.

O'n to'rt botmon yoyni olgan,
Aql ila dovruq solgan,
Butun dunyo qoyil qolgan,
Daholar bor vatandir bu.

Barchinoydek qizlari bor,
Alpomishdek o'g'lolnar yor.
Har mardiga hamrohdir or,
Mardi maydon vatandir bu.

*Halima Xudoyberdiyeva satrlari

YORUG' YULDUZ

Ijod osmonining yorug' yulduzi,
Bitgan ash'orlari yaqindir dilga.
Tunda hilol bo'lsa, quyosh – kunduzi,
Nurlar taratmoqqa mudom intilgan.

Ijod olamida boqiyidir so'zi,
Tuhfa etib ketgan ko'ngil gulsharin.
Vatanparvar ayol, jonkuyar o'zi,
Tarannum aylagan yurtimiz shanin.

Muhabbat taftidan yaralgan so'zi,
Jaranglab turibdi dillarda har on.
Ravshanlashib borar ko'ngilning ko'zi,
Ustoz ijodini o'rganib hamon...

SENSIZ...

Hayotim bedor,
Qalbim ham bemor,
Chekaman ozor,
Sensiz, Vatanim.

Tilim so'zlamas,
Dilim so'zlamas,
Ishqni ko'zlamas,
Sensiz, Vatanim.

Uyg'oqmas ko'nglim,
Yorug'mas yo'lim,
Afzaldir o'lim,
Sensiz, Vatanim.

Yuragim urmas,
Ko'ksimda turmas,
Iymon ham butmas,
Sensiz, Vatanim.



Abror Karimov

10-sinf o'quvchisi



“DA’VAT” SHE’RIGA NAZIRA

“Kunduz yurib yozdim, tun turib yozdim,
Yozganda ko’ksimga tig’ urib yozdim.
Dardlarimga siyoh kor qilmay qolgach,
Qalamni qonimga botirib yozdim!”*

Bizga merosdir bu bog’-u chamanlar,
O’tgan bobolardan – buyuk zotlardan.
Qaddingni tik tutib, ko’zla marralar,
Vataning sarhadin asrab yovlardan.

Har qarich yeriga tushirmayin gard,
Aslo Vatanninga qilma xiyonat.
Yurtingni deb garchi kechsang jondan gar,
Noming tarixlarda qolgaydir, albat.

Yurting bayrog’ini ko’klarga ko’tar,
Dunyo tanib, endi aytsinlar ash’or.
Jannati yurtimning bog’-u rog’lari
Barcha dostonlarda yozilsin takror.

*Halima Xudoyberdiyeva satrlari

ONAJON

Xushzabonim – so'zi muloyim,
Suyanch bo'lay men sizga doim.
Va asrasin sizni Xudoyim,
Omon bo'ling, aziz onajon.

Chiroyligim, durim, gavharim,
Mehribonim, yuragim, bag'rim.
Siz – boyligim, oltin-u zarim,
Omon bo'ling, aziz onajon.

Ko'nglingizni men xushnud aylay,
Mehringizni asrab-avaylay.
Xizmat qilay mudom bo'lib shay,
Omon bo'ling, aziz onajon.

SINOVLI SAFAR

Kunlarning birida bir sayyoh uzoq safarga ketadigan bo'lib qolibdi. U ko'zlagan manziliga yetib borishi uchun baland tog'lar, so'lim vodiylar, cho'l-u biyobonlardan o'tishi kerak ekan. Nihoyat safarga yetadigan oziq-ovqat va tangalarni olibdi-da, jo'nab ketibdi. U mashaqqatli yo'llarni qiyinchiliklarsiz bosib o'tibdi. Faqat cho'lga kelganda ancha tashvishlarga uchrabdi. Qumli shamollar uning yo'lda davom etishida xalal beraveribdi. Shunday bo'lsa-da, harakat qilishdan to'xtamabdi, biroq ancha vaqtidan so'ng charchabdi, madori qolmabdi.

Bora-bora na yejishga oziq-ovqati, na ichishga suvi qolibdi. Faqat cho'ntagidagi tangalar turgan edi.

Lekin ularni na yeyishning iloji bor, na ichishning. Sayyoh bor kuchini to'plab, yo'lida zo'rg'a davom etibdi. Uning bu ahvolini bir sehrgar jin ko'rib qolibdi, rahmi kelganidan shunday debdi:

—Hoy odamzod, ko'rib turibman. Seni anchagina tinkang quribdi. Mening senga rahmim kelyapti. Shu desang, men yashirin polizda bodring yetishtiraman. Buni hech kim bilmaydi. Men bodringni yaxshi ko'raman. Sen polizdan qorningni to'ydirish uchun bir dona bodring olishing mumkin. Ular sehrli. Manzilingga yetib borguningcha senga mador bo'ladi. Unutma, bittadan ortiq bodring olsang, hamma bodring ko'zdan g'oyib bo'ladi va sen hech vaqosiz qolasan. Polizdan chiqqan zahoting ko'zdan g'oyib bo'ladi, bu haqida ham hech kimga aytma.

Sehrgar jin so'zini tugatib, sayyohni polizga yetaklabdi. Poliz juda ham g'aroyib ekan. U yerda faqat bodringlar bor ekan. Sayyoh egilib, bukilib, bodringlarni terishga oshiqibdi. Endi bitta bodringni olay deganda o'ylab qolibdi:

—Bir donadan ortiq ololmayman, shunday ekan, eng katta bodringni olishim kerak, — debdi o'ziga o'zi.

Shunday qilib, u eng katta bodringni izlashga kirishibdi. Uning ko'ziga sal naridagi bodring, endi olay desa, undan naridagisi kattaroq ko'rinish ketaveribdi. Shu yo'sinda polizdan qanday chiqib ketganini o'zi ham bilmay qolibdi. Ortiga qarasa, poliz g'oyib bo'lgan ekan.

Ochko'zligi tufayli hech vaqosiz qolgan sayyoh yo'lida davom etibdi. Manzilga yetganda esa poliz haqidagi bilganlarini odamlarga aytmoqchi bo'libdi va oshqozoni qattiq og'rib, to'satdan joni uzilgan ekan.

KAPALAK

Kunlardan bir kuni ota va o'g'il mevalari pishib yetilgan o'rik daraxtining soyasida choy ichib o'tirashar ekan, ularning yoniga ikkita kapalak paydo bo'lganiga ko'zi tushibdi. Shunda ular haqida qiziqib qolgan o'g'il otasidan so'rabi:

—Otajon, bu kapalaklar juda ham bejirim va chiroyli ekan. Bular qanday kapalaklar bo'ldi? Ilgari bunday kapalakka ko'zim tushmagan ekan.

Biroz sukunatdan so'ng ota savolga javob beribdi:

—O'g'lim, bularning nomini “arvoh kapalak” deyishadi. Bular buvang bilan buvingning arvoh kapalagi bo'lsa kerak. Hoynahoy, ular o'g'li, kelini va nevaralarini ko'rgani kelishgan bo'lsa kerak.

Yana biroz sukunatdan so'ng o'g'il qayta otasiga yuzlanibdi:

—Otajon, buvam bilan buvum hayotliklarida ularni ko'rgani borarmidingiz? Ular sizni ko'rish uchun Olloh huzuridan shu yergacha kelishibdi.

—Nimasini aytasan, o'g'lim. Ishim ko'p, vaqtim yo'q bo'lgan o'sha paytlar, — debdi otasi choydan xo'plar ekan.

—Bahonalaringiz ko'p bo'lgan ekan-da. Siz bir qadamlik joyga borib kelishga ham eringan ekansiz, — debdi bolakay. —Men ham kelajakda yaxshi o'qishlarda o'qiyman. Katta ishlarda ishlayman. Vaqtim yo'q bo'lib sizni ko'rishga kelolmasam, bu dunyodan o'tganingizdan keyin siz ham meni ko'rishga kelib turasizmi?

O'g'lining bergen bu savoli otani esankiratib qo'yibdi. U buni garchi bildirmasa-da, qaytar dunyo

haqida eshitganlarini o'ylay ketibdi. Xayollarga berilarkan, o'g'lining kelajakda o'qishda o'qib, turli ishlarda ishlaganda ham otasi holidan xabar olib turishini so'rabdi. Vafotidan keyin esa buva-buvisiga o'xshab o'zi ham xabar olib turishiga va'da beribdi.





Kamola Sindarova

10-sinf o'quvchisi

SOY...

Doim jimsan sukunat aro,
Hayrat ila boqar senga oy.
Axir o'zing dilkash – dirlrabo,
Majnuntolning yonidagi soy.

Va toparman men sen-la orom,
Qalbga xushdir sendagi chiroy.
O'ylarimni olding etib rom,
Majnuntolning yonidagi soy.

Shoshib-shoshib oqasan har dam,
Mavjlarining go'zallikka boy.
Suhbatlashsam – sen dilga malham,
Majnuntolning yonidagi soy.

SHUDRING

Erta tongda qarasam,
Shudring turibdi shoxda.
Hol-ahvolin so'rasam,
Yuragi to'la ohda.



U der: – Quyosh nuriga,
Toqat qilolmam sira.
Bir zumda yer qa'riga,
Singib ketaman, qara.

– Yo‘q, shudring sen nolima,
Yuragimga yaqinsan.
Sen hech qachon g‘am yema,
Shunchalar pok yolqinsan.

Ko‘zyoshlardek mavjlanib,
Qalbim yoqib turibsan.
Go‘zallikning bo‘yniga,
Munchoq taqib turibsan.

Yashasang-da juda oz,
Tabiatga ko‘rk berding.
Agar bo‘lsang xas-xashak,
Shunda aytgin ne derding?

Senga tengmas gohida,
Ba’zi inson hayoti.
Dili yozar – shu bilan
Tugamasdir bayoti.

DARD YOMG‘IRI...

Bugun bulut sharros quyadi,
Tomchilarni tuproqqa qorib.
Dard yomg‘irin barin uyadi,
Ko‘zlarimga ko‘zyosh yuborib.

Derazamdan sirg'alar yomg'ir,
Ko'zlarimning yoshi singari.
Har tomchidan hislarim og'rir,
Bulutlar ham ketmaydi nari.

Yuragimning tubidagi o'y,
Qo'shaverar dardimga hasrat.
Dard yomg'iri – o'z holimga qo'y,
Men yashayin ko'nglimni asrab.

KO'NGIL KENGLIKLARIDA...

Qad roslagan purviqor tog'lar,
Mardonavor, mag'rur va tikka.
Bu mag'rurlik ruhni ardoqlar –
Tamoyili shunga – ko'nikkan.

Dashtlari ham ochgan xushchiroy,
Maysalari ungan ko'ngildan.
Mehr suvi to'lib oqqan soy,
Yuragimga shoshadi ildam.

Ta'riflashga aytar munosib,
So'z topmayman dil lug'atimdan.
Shodlanaman hayajon bosib,
Buyuk Vatan muhabbatidan.

Va har kuni tinmay har damda,
Xizmatiga tayyorman – shayman.
Shamollarga bo'lib men hamdam –
Bayrog'ini hilpiratgayman.



KO'KLAM KO'RKI...

Bugun tun ham ko'rilmay qoldi,
Tunamoqchi bo'lgandir rostdan.
Nurlar ichra oy ham yo'qoldi,
Quyosh chiqdi zarrin libosda.

Chapak chalib – o'ynadi qushlar,
Nafasini olar har maysa.
Chug'urchuqlar sayrar – dilxushlar,
Yuraklarda ko'klam jilmaysa.

YURAK O'TINCHLARI...

Aql ko'ndi – ko'nmadi yurak,
Umid so'ndi – so'nmadi tilak.
Dilim chindan kulmasa kerak,
Ishon, endi barchasi o'tdi.

Xotiralar qiynaydi biroz,
Aql qalbga qilar e'tiroz,
Va o'tkinchi shamollarga xos,
Ishon, endi barchasi o'tdi.

Hatto ko'zyosh aylandi muzga,
Va bahor ham aylandi kuzga,
Hasratlarim boylandi so'zga,
Ishon, endi barchasi o'tdi.

Eslamaysan meni bir nafas,
Xayollarim yurakka qafas,
Dilim o'rtar pinhoniy bir sas:
Ishon, endi barchasi o'tdi.



Yorqinoy Qazibekova

10-sinf o'quvchisi

KO'NGIL SADOSI...

Hayot so'qmog'iда yurarkan inson,
Yo'lida uchraydi, beshak, to'siqlar.
Gohida g'amgindir, gohida shodon,
Hayot kuylayverar turfa qo'shiqlar.

Pand yeydi ba'zida ko'ngil sirdoshdan,
Nohaqlik asiri bo'lar goho qalb.
Daryo to'lar ba'zan oqqan ko'zyoshdan
G'amlar tinim bilmay qilaversa jalg.

Lek sinovni yengish uchundir hayot,
Biling, yengolmaydi qijnoq sabrni.
Tabassumlar qilib yashagan zahot
Unutib yuborar inson jabrni.

TONG

Ufqdan ko'tarilgan quyoshning nuri,
Tongning otganidan beradi darak.



Nurlarga to'ladi inson shuuri,
Shodlikdan yorishar har bir dil, yurak.

Maysalar erinib ochishadi ko'z,
Shamol mayin yelpar daraxt ko'ylagin.
Shudring yaproqlarga aytar izhor – so'z
Olamning eng go'zal oppoq tilagin.

Sayroqi bulbullar ko'ngilga yorqin
Hislarni baxshida etajak in'om.
G'amlar unitilar, qayg'ular horg'in,
Ollohg'a shukrlar aytamiz shu on.



**Sitora
Naimjonova**

10-sinf o'quvchisi

SURATLAR SUHBATI...

“Shoirlar surati turardi qator”,*
 Xonada hukmron jimlik-sukunat.
 O‘zgacha bir olam qalbimgadir yor,
 Nedandir yuragim bo‘lar betoqat.

Navoiy to‘satdan jonlanib, tolib,
 So‘zini boshladi shoh “Xamsa”sidan.
 Turmushi, yori-yu va o‘zi qolib,
 Ollohga bog‘langan ishqning sasidan.

Yigirmanchi asr ko‘p shoirlari,
 Suratda jonlanar va suhbatlashar.
 Pinhona eshitib ijod sirlarin,
 Men hayron boqaman, ular dardlashar.

Sevishini aytdi Vatanni nechun?
 Abdulla Oripov ustoz shu asno.
 Aytdi: “Yurtim, seni boyliklaring-chun,
 Sevgan farzand bo‘lsa kechirma aslo”.



Ulug' ustozimiz Erkin Vohidov,
Kamtarlik haqida boshladi so'zin.
Dardlariga to'lgan Isroilova
Zulfiya satri ham yoshladi ko'zim.

Ijod – olov misli, yonar men lolman,
Bunday mo'jizadan bo'lib baxtiyor.
Suhbat davom etar, men ortda qolmam,
Misralarim ila elga qilib kor.

Balki, yodlariga tushib hayoti,
Shoirlar dedilar: "Yo'qdir o'zimiz,
Biroq mangulikda dillar bayoti,
Yashab kelayotir bizning so'zimiz".*

Ko'nglimni to'ldirib qo'ydi-ya zavqqa,
Endi suhbatlari men uchun oshkor!
Undadi bu holat ijod-la shavqqa,
Shoirlar surati bo'lib bir qator.

MANZARA

Jonini tutqazdi, qo'sh-qo'llab qish ham,
Hovliqma bahorning qistovi ila.
Kumush kun o'tirdi, yoqib sovuq sham,
Sevgisin saqladi o'lmas ko'ngilda.

Mehr shabbodasin yurakka urdi,
Shu lahza shoshgancha iliqqon ko'klam.
O'z yorin kutgancha, faqat o'y surdi,
Bo'yoqqa burkanib xayolchan o'ljam.

*Abdulla Oripov satrlari

Sehrlab sodda yer dilini biroz,
 Nurga talpinardi maysalar yashab.
 Oftobli ko'zguga boqqancha tannoz –
 Daraxtlar ko'rkiqa to'ymasdi yashnab.

Go'zal gulli ko'ylak kiyibdi borliq,
 Sevinib hayotdan bo'lib minnatdor.
 Nozlanib kelardi, qo'lida tortiq –
 Suratin soldirib qalblarga bahor!

* * *

Xayolimga taqqan go'zal gulchambar,
 Ko'rdim ko'klamning xushro'y orazin.
 Bundan uyalgancha ko'rkidan dilbar
 Hasadli tebranib, solardi razm.

Yaproqlar qo'lida shudring dilsozi,
 Tong xira tortganda yoqimli kuydir.
 Fasli kelinchagim, yellar ovozi:
 "Bag'ring barcha uchun xushmavsum uydir".

KUZ

Oltin yaproqlaring to'shaysan yerga,
 Lekin bu to'shakmas, ajib dasturxon.
 G'aroyib voqeа aytayin senga,
 Uni men eslayman, har zamon, har on.

Sargardon barglar yig'ilib bir kun,
 "Ketamiz" deyishdi olis safarga.



To‘zonlarga bardosh qilolmagan tun,
Kelib qolgan mishlar kichik shaharga.

Keyin bir sho‘xlikni boshlagan yomg‘ir,
Jala quyib berdi to‘lgandek dardga.
Bechora yaproqlar uvidi dir-dir,
Sho‘xlikdan so‘ng ular borar qayoqqa?

Odamlar to‘xtasa, hech ish qilmasa,
Suyaklari qaqqshab, qarsillar har on.
Lek shu yaproqlarni inson bosganda,
Shu ma'yus xazonlar berishadi jon.



**Dinara
Abdumajidova**

9-sinf o'quvchisi

**"SHUNCHAKI" SHE'RIGA
NAZIRA**

"Men shunchaki yig'lagim kelmas,
Xayol sharob misol qilsin sarxush, mast.
Men shunchaki kuylagim kelmas,
Ovoz pardalarim chidab bersa bas".*

Shoirni atashar ko'ngil podshohi,
Shunchaki yozmoqqa uning haqqi yo'q.
Yangrasa – yangrasin yurakdan ohi,
Yozsa – yozsin faqat kuyib misli cho'g‘.

Shunchaki shoirlik – dardsizlik, demak,
Shunchaki yozmoqdan yo'qdir hech ma'no.
Malham bo'lsin dardga bitiklar, beshak,
Xalqning yuragiga singib borsin to.

Shunchaki yozilsa – beta'sir bo'lsa,
Bunday she'r tirikmas – qog'ozda qolgan.
O'qigan yuraklar nurlarga to'lsa,
Demakki, satrlar darddan tus olgan.

*Halima Xudoyberdiyeva satrlari



Shunchaki yashash bu – vaqtni sovurish,
Shunchaki yashashni istamas ko'nglim.
Shunchaki yashash bu – daraxtday qurish,
Umrni behuda o'tkazmoq – o'lim.

Onam faxrlansa men bilan har zum,
Meni deb padarim ko'krak kersaydi.
Yuksak cho'qqilarni kelar zabit etgum,
Shunchaki bir farzand bo'lgin kelmaydi.



Dilfuza Valijonova

9-sinf o'quvchisi

BERKINMACHOQ

Ancha bo'ldi, yo'qdir nishoni,
Qo'ng'iroqqa javob bermas hech.
Ko'nglim bedor, har kun xavotir,
Qiynayverar meni erta-kech.

Xotirlayman, har suhbatimiz,
Yelkasida topardim taskin.
Kulgusiga mahliyo bo'lib,
Go'zal baxtni ko'rardim aksin.

Sen berkinib olding va yoki,
Men yo'qotib qo'ydim izingni.
Seni eslab, qo'ng'iroq qilib,
Takrorlayman, har kun ismingni...

Esingdami? Bekinmachoqlar
O'ynar edik bolalik chog'i.
Ikkimizga havas-la boqib,
Ochar edi bog'lar quchog'in.

"Olma", – desam, chiqasan, derding,
"Nok" desam-ku chiqmay qo'yaqol.



Yashrinmachoq o'ynab ikkimiz,
Ulyga kirsak, ust-bosh bir ahvol...

Berkinmachoq tugadi, do'stim,
Ulg'aydik-ku, orqada qolma.
Seni har kun izlar Dilfuza,
Tilidan hech tushmaydi: "Olma"...

* * *

Zuhrajon, qayerda aqldan ozdim?
Qo'ynimda qay ilon saqlab keldi jon.
Yo'q, yora olmayman senga dardimni,
Daydigan hislarim, qara,bemakon.

Zuhrajon, bezabon yashash qismatmi?
Sen meni sukutdan anglab olgin,
HA!

Sening ro'molchangga ko'z yoshlар toмgan,
Mening yig'layverib, dilim namiqqan.

Zuhrajon, qayerga ketmoq istayman?
Nega bu odamzod shu qadar yomon?!
Dunyolarga sig'may ketyapman desam,
"Xudoning yoniga bor" deysan hamon!..
"Xudoning yoniga bor" deysan hamon!

Zuhrajon, qayerda aqldan ozdim?..

Sensiz vujudimni kuydirar sog'inch,
Zanjirday ulayman tun bilan tongni.

Birikib boradi tobora ilinj,
Umid uzolmaslik aytgin, xatomi?

Qora paranjisin yopingan osmon,
Mening ham boshimga o'raydi ro'mol.
Xuddi ko'zlarimning tomchilaridek,
Paranji ortiga berkinar hilol.

Hatto hazar qildi menden yomg'irlar,
Kimga dardlarimni aytay, bilmadim?
Ko'zimda qalqigan sog'inch yoshlarim,
Faqat yostig'imga og'ir kelmadi...

Suvdek zarur bo'lding, havoday kerak,
Sensiz g'arib shamday tugab bitganman.
Oppoq kechalarda izlab kelmading,
Qora kunduzlarda qolib ketganman...

* * *

Kecha...
Sensiz uyquga ketdim,
Sensiz yedim pushaymonni ham.
Qalbimdagi quvonchlar yetim,
Yo'llaringga ichirdim qasam.

Kecha...
Kuldim ilk bora soxta,
Birinchi bor yulduz-la yotdim.
Kimdir unsiz ingraydi: "To'xta",
Issiq tunda sensiz sovqotdim.



Kecha...

Yig'i keldi ko'zimga,
Esingdami? "Yomonsan!" derdim.
Men sen uchun yig'laganim yo'q,
Og'rir edi allaqayerim!

Kecha...

O'tli nigohlar becho'g',
Sensizlikka sira ko'nmayman!
Aldayapman: "Sog'inganim yo'q!",
Aldayapman: "Yaxshi ko'rmayman".



Mahliyo Ahmadqulova

9-sinf o'quvchisi

HAVAS...

She'rlaringiz tonglarday oppoq,
Dardga malham qaynoq nur – tafti.
Oziqlanar ko'ngillar har chog‘,
Huzurlanar – his qilib baxtni.

Goho sevinch, gohida g'amni,
Neki bo'lsa, yozdingiz barin.
Tushirmajin qo'ldan qalamni,
Bitdingiz dil asarlarini.

She'riyatning chirog'in yoqib,
Yoritgansiz hatto tunlarni.
Siz olamga teranroq boqib,
Kashf etgansiz yorug‘ kunlarni.

Siz bo'ldingiz chin do'stga chin yor,
Dushmanga-chi, bo'ldingiz xatar.
Sadoqatdan siz taqqan tumor,
Ko'nglimizda havas uyg'otar.



IJOD BOGI

Qalbimda orzular urganda tug‘yon,
Bir orzu yashardi dilimda har on.
Endi bu orzular bo‘lgandir armon,
Diydoringiz ko‘rmoq orzudir hamon.

Olib ketdi axir beshavqat hayot,
She’rlaringiz dilga aylaydi najot.
Ijod olamida so‘zlar sochdi nur,
She’rlaringiz o‘qib, qalb topar huzur.

Sizning ijodingiz qo‘shar jonga jon,
Shu on tomirimda jo‘shar hatto qon.
Timay siz ijoddan yaratdingiz bog‘,
Kezganlar yuragin aylagaydir chog‘.

VATAN MADHI

Sen nur bo‘lib keng olamga sochilgan,
Sen mehrsan – yuraklarda jo‘sh urgan.
Sen chechaksan – bahorlarda ochilgan,
Har tong iforlari dilda ufurgan.

Sen oydirsani – har tong turasan kulib,
Sen yulduzsan – nurlar qilasan tortiq.
Sen mehrsan – dillar mahliyo bo‘lib,
Baxtni his etolmas, o, bundan ortiq.

Sen singlimsan – meni yurakdan suygan,
Sen ukamsam – menga qayg‘urgan har on.
Sen otamsan – baxtim qalbidan tuygan,
Va baxshida qilgan bizlar uchun jon.

Sen bobomsan – tinmay nasihat qilgan,
 Sen buvimsan – bizni o'ylagan har dam.
 Ostonasan – bizlar mangu intilgan,
 Azal qismatimga bitilgan – Vatan.

BAHOR

Begard uchayotgan varraklar ila,
 Ko'kda parvoz etar mehr ifori.
 Ko'klamning otashin haroratidan,
 Unsiz qulab tushar qishning devori.

Tog'larda tosh urib gulxanlar yoqib,
 Baxtning uchqunlari porlaydi, beshak.
 Yuzin ajin bosgan keksa qirlarga,
 O'lanlar aytadi mitti boychechak.

Bokira hurlikning nafasi yerlar,
 Shuhratga yo'g'rilgan elning boshida.
 Yashil o'sma qo'yib shodlanayotgan,
 Qaldirg'och qanoti qizlar qoshida.

Hislarim o'g'irlar mayin shabboda,
 Falakdan injular to'kilar takror.
 Shoirddek ilhomni jo'shar-u ey voh,
 Borliqqa jonini baxsh etar bahor.

QALBIMDAGI QO'SHIQSAN, VATAN...

Mehrimni tortquvchi yolg'izim onam,
 Eng laziz qo'shig'im – go'zal taronam.
 Dunyoga alishmam nurli ostonam,
 Dil uchun dunyoda yagona Vatan.



Tuprog‘ing ko‘zlarga to‘tiyo aylab,
Mehr-u muhabbatning dillarga joylab,
Gul-u giyohingni sevib-avaylab,
Yashaymiz bag‘ringda mardona, Vatan.

Seni kuylagayman, sen-la har onim,
O‘zing sajdagohim – ota makonim.
Deyman: sendan ayro tushmasin jonim,
Ey buyuk Turonim, chin ona – Vatan.

YOSHLIK SHIJOATI

Yashil maysalarda shudring qalqiydi,
Yaxshilikning zilol xayoli bo‘lib.
Go‘zal oy osmonda kulib balqiydi,
Yoshlik shodligiga to‘yinib – to‘lib.

Yoshligim, qanoting qoqqin yuksakka,
Sendadir kuch-g‘ayrat, senda shijoat.
To‘xtama, bir nafas olg‘a intilgin,
Yuksalib, hamisha ko‘rsat mahorat.

Quvonch gullarini to‘kib boshimga,
Qalbimga nur sochib, taftini olgin.
Irodam sen bilan parvoz aylagay,
Hayotimga cheksiz zavqlaring solgin.

Baland cho‘qqilarni zabit eturman men,
Ahd qildim shundayin orzu – tilakka.
Yoshligim, qo‘yningda ucharman shodon,
Buyuk maqsadlarni tugib yurakka.



Gulsanam Turğınboyeva

9-sinf o'quvchisi

ONAMDAY MUQADDAS...

O'zbekning iftixor-g'ururi, baxti,
Hayotiy she'rlari yoqimli har dam.
Ijod olamining so'lmas daraxti –
Onamday muqaddas – Halima onam.

Mashaqqat yo'lida fido etgan jon,
Bitgan har satrida mazmundorlik jam.
Har so'zingiz misli terilgan marjon,
Onamday muqaddas – Halima onam.
Sizning bayotingiz – go'zallik naqshi,
Sizning yuragingiz – o'chmaydigan sham.
Mangu nom qoldirmoq naqadar yaxshi,
Onamday muqaddas – Halima onam.

Ijod yo'lingizdan – nurli gulshanda,
Qadam tashlamoqni istaymiz biz ham.
Shijoat olgaymiz ilhom – gulxandan,
Onamday muqaddas – Halima onam.
Butun o'lkamizda nomingiz ulug',
Sizni e'zozlagay, ardoqlar har dam.
Sizning xotirangiz abadiy qutlug',
Onamday muqaddas – Halima onam.



Shahlo Davronbekova

9-sinf o'quvchisi



* * *

Ha!

Hozir nigohlar to'qnashgani rost,

Ha!

Ko'rib turibman juda baxtlisan...

Nigoh o'qlarining qonli zARBASIN,

Ko'tara olmaysan, "Tikilma!" deysan...

Qaydan shuncha jur'at, o'ylamay, netmay,

Bir zum unutibsAN, yoki-da butkul.

Alamlar qalbimda qiladi ishrat,

Oynaga qaradim: "Qani, bitta kul".

Kechirjin! Men senga o'xshamaganman,

Ojizlar oladi hayotdan qasos!

Men Haq deb tug'ildim,

Haq deb o'laman,

Mehribon onamga o'xshaganim rost...

Men-ku boshqalarni alday olmayman,

Sen deb o'z -o'zimni aldaganim chin.

Ko'nglingning uyini o'zgalar buzsa,

Dalda berolmasam, iltimos, kechir!

Shamollar...
 Daraxtlar...
 Odamlar...
 Qushlar...
 Uchib ketayotir ko'kda yulduz ham.
 To'xtab tur!
 Baxtimni olayin ushlab,
 Yarmini sen bilan ko'raman baham!

Endi ket, vaqt bo'ldi. Ko'p qolib ketding,
 Yonimda egmagin, azizim, boshing.
 Yig'lasang ko'zingda aks etaman men,
 Birovga ko'rsatma ko'zingda yoshing!

Sendan xafamasman.
 Norizolik yo'q!
 Sen menga o'zimni tanitding ketib.
 Pushaymonligim yo'q... to'xtatma, qaytma..
 Go'yo ich-ichimdan aytaman rahmat,
 ...o'zligim
 tanitding
 ...o'zimga
 qayta.

USTOZLARGA HAVAS

Mehr berib barcha o'g'il-qizlar uchun,
 Boringizdan siz kechasiz bizlar uchun.
 Qoladigan ertangi nur, izlar uchun
 Ustozlarim, men ham sizdek bo'lgim keldi.

Mashaqqatni doim tutib siz yashirin,
 O'rgatasiz tinim bilmay ilm sirin.



Bu hayotda sizdek bo'lmoq boldan shirin,
Ustozlarim, men ham sizdek bo'lgim keldi.

Ko'rsatasiz, to'g'ri yo'lni xato qilsam,
Sevinaman, xatolarim barvaqt bilsam.
Ne qilibdi, ustozlikka men intilsam,
Ustozlarim, men ham sizdek bo'lgim keldi.

Yo'llarimni yoritgaydir har bir saboq,
Shogirdlarning yutug'idan qalbingiz chog'.
Mehnat qilib sizning kabi yaratib bog' –
Ustozlarim, men ham sizdek bo'lgim keldi.

DILSO'Z...

Mehribon – onajonim,
Har ishga ulgurasiz.
Bizlarni o'ylab har on,
Yelasiz, yugurasiz.

Boshimda parvonamsiz,
Zulmatda shamchirog'im.
Doimo omon bo'ling,
Sizsiz – ko'ngil ardog'im.

Menga otيلgan toshqa,
Doimo qalqonimsiz.
Do'stлarim voz kechsa gar,
Siz esa yонimdasiz.

Qaynar buloq mehringiz,
Qizdiradi taftingiz.
Umringiz bersin Olloh,
Mening ko'ngil baxtimsiz.

Kunduz yerda – quyoshim,
Ko'kda porlar oyimsiz.
Siz silab-silab boshim,
Hamisha muloyimsiz.



Ne'matillo Babojanov

9-sinf o'quvchisi

O'ZBEK SHOIRASI...

O'zbek shoirasi – Halimaxonim,
Sizning she'rlaringiz abadiy hamon.
Guldek bezab turar ijod bo'stonin,
Xalqning yuragida yashaysiz har on.

Sizning so'zлaringiz iforlarga boy,
Siz yaratgan gulzor judayam ko'rkar.
Egallab turibdi ko'ksimizdan joy,
Shirin iforlarin taratib har dam.

Dillarni yoritar misoli quyosh,
Nurli so'zлaringiz porlar har qachon.
Axir yuraklarga bag'ishlar bardosh,
Har bir she'ringizga tan berar jahon.

O'zbek shoirasi – Halima ustoz,
Siz uchun atalgan ehtiromimiz.
Ko'nglingiz ifori mudom beqiyos,
Adabiy olamda mangu nomingiz.



**Zuhra
Tojiboyeva**

9-sinf o'quvchisi

**"AYOL O'TIB BORAR"
SHE'RIGA NAZIRA**

"Sen so'rama, men ham aytmayin,
Kuragimning singanini qars.
Shovqin solma, men uyg'otmayin,
Yuragimda yotar bir yo'lbars".*

O'sha yo'lbars yuragim tilib,
Qiynayapti goh shovqin qilib.
Uyg'onsa gar yo'lbars o'kirib,
Yurak ketar oynaday sinib.

"Ayol o'tib borar"* jim yurib,
Hasratlarga to'lsa ham oni.
Zarur bo'lsa, nogahon kulib,
Zabt etishi mumkin dunyoni.

*Halima Xudoyberdiyeva satrlari



Shahzoda Xamroqulova

9-sinf o'quvchisi



* * *

Bugun havo aynigan biroz,
Ko'kda chaqmoq kezib yuribdi.
Quyosh kulmas – yomg'ir ham sharros,
Yog'moqchiday bo'lib turibdi.

Tinim bilmas momoqaldiroq,
Borliq bag'rın to'ldirib sasga.
Havo uzra akslanib titroq,
Yetib kelar osmondan pastga.

Gumburlaydi takror va takror,
Qoraygancha bulutlar og'ib.
Oshkor qilar kelganin bahor,
Shitir-shitir yomg'irlar yog'ib.

Va chertilar ko'ngil derazam,
Uyqusidan uyg'onib hislar.
Zavq-u shavqqa to'lib o'shal dam,
Kuy-qo'shiqlar yaratmoq istar.

TUSHDAGI TUYG'ULAR...

Ajab, qiziqarli ko'ribman bir tush,
Ikkimiz dunyoni kezib yurardik.
Boshqa hech qandayin yo'q edi yumush,
Sevinchdan, quvonchdan davron surardik.

Sog'inch neligini bilmasdik shu dam,
Yetinchi osmonda yozardik qanot.
Saodat nurlari qalbda mujassam,
Baxtning qo'shig'ini aytardi hayot.

Dillardan, yurakdan chiqardi bir so'z:
Alvido, demaylik bizlar umrbod.
Shirin baxtimizga hech tegmasin ko'z,
Armon ko'nglimizga bo'lsin mudom yod.

Va keyin o'ngimda shu baxt bor bo'lsin,
Va aytmasin xayr so'zin tilimiz.
Tushdagi saodat o'ngda yor bo'lsin,
Burkansin nurlarga – ishqqa dilimiz.

Sevgi – muhabbatdan yaralgan olam,
Bizni tark etmasin – bo'lsin yonma-yon.
Bebaho tuhfasin etib havola –
Dilni mo'jizaga to'ldirsin har on.

KO'KLAM ISI...

O'tar har kun o'zgacha osmon,
Bulutlarning parvozi nafis.



Ko'kka boqib zavqini har on,
Men qilaman yuragimdan his.

Va shabboda erkalar dilni,
Chorlab turar tuyg'uni samo.
Sadarayhon menga ilinib,
Ko'klam isin taratar hamon.

* * *

Izlasam topaman ishqning sirlarin,
Yiqilsam turaman dardlarni yengib.
Yuragimga kelgan g'amlarning borin,
Men yutib chiqaman boshini egib.

Va chalaman tinmay qalbimning torin,
Ko'nglimni bezaydi baxtning shu'lasi.
Hayot tuhfa etsa, men uchun borin,
Yangrayverar sevgim kuy-ashulasi.



Gulbahor Yorginova

9-sinf o'quvchisi

**SOG'INGANIM SENSAN,
BAHOR...**

Shirin xotiralar yodimga tushdi,
Eng go'zal damlarni esladim yana.
Hatto yuragim ham shodlikni quchdi,
Ko'zimda ko'zyoshlar qildi tantana.

Kunlarim yillarga almashib ketgan,
Yo'limdan ming-minglab chiqqan sinovlar.
Cheksiz sog'inchlari ko'klarga yetgan,
Sog'inchli yo'llar bu – yo'lagini g'ovlar.

Sog'ingan damlarda xotiralar bor,
Qo'msab qolganimda taskin bo'ladi.
Sog'inganim sensan – betakror bahor,
Sen kelsang, quvonchga ko'nglim to'ladi.

* * *

Tun qo'ynida xayol suraman yolg'iz,
Bir zum sukunatga asirman go'yo.



Men bormoqchi bo'lgan manzillar olis,
Barcha armonlarim bo'lsaydi ro'yo.

Shodliklar qariga bag'rimni ochib,
Quvonchga o'zimni asira etsam.
Xasta hislarimdan bir lahma qochib,
Og'riq, azoblarni unutsam, ketsam.
Ketsam-u, ortimda ig'volar qolsa,
Nurli yo'llarimni berkitmasa g'am.
Yo'limga baxt chechak gar soya solsa,
Dard-u alamlarning qolmas izi ham.

Jon-jonimga singib ketsaydi ilhom,
To abad qoq'ozdan uzilmas qalam.
Yetajakman buyuk samoga illo,
Meni qo'llab tursa Yaratgan egam.

KEL...

Bulutjon, endi kel, qo'llarimdan tut,
Osmoningga olib ketaver meni.
Qo'llaringni uzma, qo'yvormam seni,
Azobni unut...

Bulutjon, endi kel, qo'llarimdan tut,
Qayg'ulardan qolgan jon-joningdan kech.
Oh, meni olovda qoldirmagin hech,
Qalbimnisovut...

Bulutjon, endi kel, qo'llarimdan tut,
Tomchiga aylanma, quvonch bo'lib qol.
Bugun ko'zyoshimni, dardlarimni ol,
Yurajim tobut...

* * *

Yomg'ir savalaydi maysalar yuzin,
Mayin shabodalar dardin qoqadi.
Yaproqlar o'rtada bo'lib har so'zin,
Balki, maysalarga oftob yoqadi.

Tovlanar labida go'zal bir gavhar,
Quvonib jo'r bo'lar qalblar kuyiga.
Novdalar kiyibdi go'zal gulli zar,
Lek yomg'ir achinar maysa ko'yiga!

QANDAY QARAYMAN...

Yuragimda o'chmas alamlar qoldi,
Ko'zyoshlarim to'lib, qalbimda titroq.
Hadiklarim dilga qo'rquvlar soldi,
Bugun kulgularim sizdan-da yiroq.

Qanday yolg'on so'zlay, qandayin alday?
O'zim ovutmoqni yo'qdir imkoni.
Menda ishonchingiz qoldi-ku qilday,
Endi umidlarni ko'mmoqlik oni.

Mitti kapalakning bir umri kabi,
Ishonch o'rалмоқда оппоқ катаға.
Кетмоқдаман зулмат ўйлари сари,
Yuragimdagи cho'g' oldi alanga.

Xasta quvonchlarga yo'qdir darmonim,
Azob sochlarini asta tarayman.
Ko'nglimni sindirgan mening armonim,
Ona, ko'zingizga qanday qarayman?!

Ruhshona Saidmurodova

9-sinf o'quvchisi



"SENSIZ" SHE'RIGA NAZIRA

"Mana bir umrni yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib".*
Men o'sha bog'larni kezdim tovushsiz,
Buloq suvlarimas, qonimni yutib..."

Kutdim, qaytarmikan o'tgan o'tmishim?
Xotiralar aro quvondim, yig'lab.
Menden kechar bo'lding, essiz, kechmishim,
Qoldim bir yoding-la, bag'rimni tig'lab.

Ne deya olasan, tuproq baxtliroq,
Sening vujudingni quchib yashaydi.
Eng dardli qo'shiqdan kuyim dardliroq,
Tushlarim sening-la, baxtga boshlaydi.

Ey qalbi pokligim, haykaling bilan,
Uzoq suhbat qurdik, ko'zlar so'zladi.
Xuddiki seningdek haykaling ham jim,
Mening qalbim yana seni izladi.

Izladi, topolmay biz kezgan bog'ni,
O'sha bog' hamon bor, ammo yo'qsan sen.
Bahor gullarining quchib yanog'in,
Mangu yoding aro yashayapman men!

*Zulfiya Isroilova satrlari



Kurshida Nazarova

9-sinf o'quvchisi

"MEN O'TGAN UMRGA..." SHE'RIGA NAZIRA

"Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,"*
Endi o'tmishimga emasman mushtoq.
Yurakka sanchilgan ig'vodan to'ydim,
Maqsadim qalbimda shodlik yaratmoq.

Mayli, dardlarimdan bo'lmayin foriq,
Alam-uqubatlar menga bo'lsin yor.
Ammo xazonlarni ko'rganda borliq,
Gul kabi ishqida o'rtansin bedor.

Bahorning ilk kuni chiqqan gul bo'ldim,
Sovuq nimaligin bilmasdum, axir.
Hali ochilmasdan, bir kulib, so'ldim,
Qayerlardan keldi bunchalik qahr?

Vujudni titratgan bu mudhish o'ylar,
Bag'rimni qon qilar ayni o'sha payt.
Aslida tilim ham dilimdan so'ylar,
Qog'ozga ko'chirsam, chiqar ming-ming bayt.

*Zulfiya Isroilova satrlari



Xayol og'ushidan qasrlar qurib,
Qalbimdan buloqday toshganda alam.
 Ko'ngil hislarimni bir chetga surib,
 Mungli ko'z yoshimdan oldim men qalam!

ONAM

Onam, sochingizga oq ham oralab,
 Necha yillar o'tdi, balki asrlar.
 Ketdi do'stlarim yurak yaralab,
 Men nechun qurmadim sizga qasrlar.

Orqamda qoldirdim yig'latib zor-zor,
 Mendayin noshudga qildingiz toqat.
 Sizni ko'p ranjitdim, ko'p berdim ozor,
Qo'limdan kelgani shu bo'ldi faqat.

O'zim bilan o'zim bo'lib ovora,
 Hatto qaramadim ko'zim qirida.
 Sizga bo'lgan mehrim yana bir bora,
 Alanga olmoqda yurak qarida.

Erib ketsa edi, qorday yuragim,
 Bag'ringizga bossam o'zimni yana.
 Mehrla tuyaman menga keragim,
 Doimo yonimda bo'lsangiz, ona!



Gulsanam Eshqulova

9-sinf o'quvchisi

GUNOH

Bahor quyoshi yuzimdan qattiq bo'sa olar, bu ajib holat bir insonni yodimga solardi...

Qora ko'ylak kiygan kunning pinjiga suqilib o'tiribman. Hayot o'zi bilan ovvora. Men o'ylarim bilan... Nahotki, anavi yorqin yulduz onam... Nahotki, meni ko'rib turibdi... Meni biladiganlarning bari menga onalik qilaveradilar, tavba, meni onam bitta! Onajonim... Kechagina gaplashdim, tunda, qorong'i kunda...

—Qizim, tur! Namoz vaqtি bo'ldi, — dedi mehr bilan dadajonim.

Sakrab turdim-da, namoz o'qishga tayyorlandim. Maktab hayotimning mazmuni. Inson kimdilsiz yoki nimadilsiz qolsa, ikki yo'ldan birini tanlaydi, faqat ikki yo'l... Yoki hammaga yaxshi yo'l bilan o'zining kim ekanligini ko'rsatish yoki salbiy yo'l bilan o'zining kimligini bildirish! Men musulmon ekanman, ijobiysini tanladim. Lekin hech kimni hech qachon unutmadi, hatto bir soniya... Shunchaki ko'nikdim... Ko'nikdim... ...



Oy. Quyosh.

Qoralik qo'ynida bir nur kabi o'tiribman. Ko'zim yoshga to'lib, to'g'onni buzib o'tmoqchidek talpinadi. Tilim kalimaga keldi-yu, birdan mening ovozimdag'i "ooonaaa" degan sas xonamni bo'rondek qopladi. To'g'on buzildi, endi sharshara kabi qayerdandir qonli va achchiq suv qujilib kela boshladi. Bu jarayon bo'ronni rag'batlar edi. Yuragim ham menga bo'ysunmas, bir asov ot kabi kishnardi. YO'Q!!! Shu payt bu duk-dukdan o'yilib ketay degan eshikni kimdir ochdi. Dadam... Bo'ron birdan tindi... Ularning jilmayishi xonamga shabbodaning suzib kelishiga sabab bo'ldi:

—Onam, nima bo'ldi?

—Dada, nega, Olloh mening onamni olib ketadi, nega?! Axir...

—Onajonim, shaytonni qalbingda mehmon bo'lishiga yo'l qo'yma! Zinhor!!! Bilasanmi, Ollohim koinotdag'i eng rahmdil va mehribon zot. Xudoyim, berib yoki olib sinaydi. Suygan bandasidan oladi... Chalkash sinovlarni beradi...

—Dada...

—Onaginam!..

Yillar ulg'ayib, yoshim ham ancha qaridi, ammo o'zim tetikman. Dadam ham onam kabi qalbini menga omonat topshirdi... Ammo o'sha g'alaba qozongan kunimdan boshlab hattoki, bir marotaba ham ko'zim namlanmad! Chunki omonatini topshirganlar uchun yig'lashim gunohligini tushundim.

ZULMAT

To'rt devor orasida, olti kishilik tor xonada yettinchi bo'lib o'tiribman. Militsiya xodimlari meni kechadan oldingi kuni olib kelishgan edi:

Kichkina hovli. Farzandlarim bilan suhbatlashib o'tirardim. Birdan vahima bilan bir guruh odamlar keldi. Farzandlarimni, ayolimni zor yig'latishdi-ya... Aybim nima ekanligini hatto bilmas edim...

Odatda aybsiz kishi uch kunda chiqarilib yuborilardi. Bugun uchinchi kun! Zax xonaning burchagida devordagi tuyrukchaga qarab o'tiribman. Bir kishi xonamiz yoniga keldi. Shu onda boshimni ko'tardim. Qorachadan kelgan, novchagina bir odam menga qarab:

—Ha, mulla Abdulla, nima bo'ldi?

Tanidim. O'shanda "O'tkan kunlar" romanimni endigina yozib bo'lgan edim. Kimdir qattiq baqirdi:

—Abdulla!!!

Gavdali rus va Hasan Xo'janazarov degan odam qonli ko'z bilan qarab turardi. O'shanda nimalardir deb do'q-po'pisa qilib ketishgandi. Hozir ham o'sha Hasan Xo'janazarov, faqat negadir xursand edi:

—Eslaysanmi? O'shanda men seni ogohlantirgan edim. Sen kim bo'libsanki, buyuk rus davlatiga to'rtta gaping bilan qarshi chiqasan?

Men uni faqat tingladim. U biroz ezmalandi-da, ketdi.

Bugun beshinchi kun. Yarim kecha. Oymomo tuyrukdan mo'ralab, yuzimga nur sochardi. Ko'zim yumuq. Allakim xonamiz oldiga keldi-da, "Boboy" deb sekingina imladi:



-Nimalar bo'lyapti?
 -Kamida bir haftada Abdulladan qutulamiz...
 Tushundim. Ular meni o'ldirishmoqchi. Adashadi.
 Men o'lmayman. Hali ozod yurtda ko'p yashayman!
 Inshoolloh...
 Ertaga oltinchi kun...

ISHONCH

Faxr-iftixor! Qanchalar ajoyib tuyg'ular-a? Men oilam, xalqim va Prezidentimning men haqimda o'ylaganlarida shu hislarni tuyishini istardim...

Ertaga Tokioga uchamiz. Ertalab onamning bomdod namozini o'qiyotganiga yana ko'zim tushib qoldi. Ular qo'llarini duoga ochganlarida yig'lab yubordi. Ko'zlarini surtib o'rnilaridan turar ekan, meni ko'rib yuzini yashirdi. Birga nonushta qildik. Aeroportda hamma bilan xayrashib, samalyotga chiqib ketdik. Uchib ketayapmiz-u, mening xayolimni onamning bir og'iz gaplari chulg'ab olgan edi: "Akbarjon, toychog'im, senga hammamiz ishonamiz. O'zbekistonning bayrog'ini ko'klarga ko'tar!!! Jon bolam, sen bilan faxrlanamiz..." Ular bu gaplarni aytar ekan, hadeb meni quchar, yosh to'la ko'zlarida esa mehr va ishonch barq urib turardi.

Tokioga kelganimizdan so'ng ham onamning bu gaplaridan o'zimga kelolmadim. 3-avgust. Murabbiyim menga qarab bir nimalarni tushuntirardi. Bir vaqt "O'zbekistan, Akbar Jo'rayev" degan ovoz yangradi. Qaddimni g'oz tutib, shtanga tomon yura boshladim. O'zbegimning sog'inchi, onam aytgan gaplar,

Prezidentimning ishonchi ila shtangani qo'limda oldim. Dast ko'tardim. Ha, ha, men ko'tara oldim, ishonch sababli! Yuragimning tag-tubidan hayqiriqlar chiga boshladi. Yana ko'z oldimga Vatanim keldi. Oh, mening jannatmakon, hatto jondan aziz bilganim, ko'z qorachig'imday azizim, go'sham!!! Men shoir yoki yozuvchi emasman-u, ammo bu so'zlar qalbimdan, chin yuragimdan otilib chiqardi...

Murabbiyim bilan og'ir atletika bo'yicha gaplashib o'tirgandim. Ular:

—Akbarjon, biz, albatta, yutishimiz kerak! Nimaga bilasanmi, chunki bizga ishonch berildi, uni vayron qilmaslik zarur.

—Yurtimning bayrog'ini ko'klarga ko'taraman. Ishoning!!! Menga tanish bo'lgan avvalgi ovoz yana eshitildi: “O'zbekistan, Akbar Jo'rayev, 237kg” Bu safar siltab ko'tarish kerak edi. Bu 237 kg shtangani qanday ko'targanimni bilmayman. Ko'tardim hamki, hayqiriqlareshitilaboshlandi. Murabbiyimning “Akbar, barakalla, rekord, olimpiada rekordini yangilading, o'g'lim!” deganlari qulog'im ostida jaranglab turardi. Bilaman, onam shtanga ko'tarayotganimni tomosha qilmagan... qo'rqedi! Lekin xalqimiz ko'rib turibdi-ku! “Sizlar uchun! Rahmat!!!” deb baqirgim kelib ketdi. Shu bilan birinchi o'rin bo'ldim-u, bo'ynimga oltin medal ilishdi. Mening qalbimni ravshan qilgan narsa Vatanimning madhiyasi yangragani, Davlat bayrog'imizning balandga ko'tarilgani...

YUKSAKDAN MAKTUB

Ganja... qanchalar go'zal shahar! Kuzning shamoldan qarzi bor ekanmi, bilmadim-u, lekin quyosh nurlari enib qolgan daraxtning barglarini har tomonga xohlaganicha o'ynatayapti. Otam xalq orasida "tikuvchi Zaki" nomi bilan mashhur. Hozir ham kichik kulbasida nimadir tikyapti. Men adabiyot yo'lidan yurish uchun oilaviy – an'anaviy kasbimizni rad etib, ammo tikuvchi sabri bilan asarlar yozmoqchiman. Bularni bajarishim mumkin-u, lekin, avvalo, otamdan ruxsat so'rashim kerak. Hozir kuzligi sababli otam zangori liboslar tikyapti.

–Otajon, – deyman, nima demoqlikni bilmay. Otam bo'lsa:

–Ilyosbek, na ishing bor? Yoki tikmoqchimisan?!

Mening jasurligim tutib qoldimi, xullas:

–Otajon, ijozat bering, men tikuvchi emas, balki Nizomiy bo'lib Aflatun, Suqrot bo'layin! – dedim.

U esa menga kulib:

–Ilyosbek, bizning avlodda bilasan, tikuvchi bo'lish otadan bolaga o'tadi, bu an'ana! – deb jiddiylashdilar-da: – Lekin, mayli, menga Aflatun bo'laman, deding, bo'l, o'g'lim, biroq tikuvchilik senga ota kasb!" – dedi xotirjam.

Men bu so'zlarni tushimda ham eshitmagan edim. Men o'z kulbamga kirib, hali o'qib bitirmagan Firdavsiyning "Shohnoma" asarini shijoat bilan shu kunning o'zida o'qidim. Mening eng sevimli asrim o'zi shu – "Shohnoma". Umrim so'nggigacha ushbu asar men uchun sevimli kitob bo'lib qoldi. Men tikuvchilikni ham o'rgandim va bolalikdan savodli bo'laman, deb

ko'p o'qidim, arab, fors va turk tillarini mukammal o'rghanishga harakat qildim. Bu olamda qanday bilim bo'lsa, barchasini o'rgandim, ya'ni matematika, astranomiya, astralogiya, alkimyo, tibbiyot, botanika, teologiya, QUR'ON tafsiri, shariat, iuadizm, Eron miflari va afsonalari, tarix, etika, falsafa, ezoterika, musiqa, tasviriy san'at va hakozo...

Bir kuni Darband hokimi Doro Muzaffariddin menga bir turk cho'ri qiz sovg'a qildi. Ismi Ofoq... U... Men uni ozod qilib, unga uylandim. Ofoq aqlli va nazokatli ayol. U mening ilhom farishtam. Unga atab she'rlar yozdim... Menga u Muhammadday mo'min farzand sovg'a qildi. Biroq, afsus, "Xusrav va Shirin" asarimni tugallash arafasida edim hamki, u meni tashlab ketdi:

Yoz fasli edi. Bizning jannatmakon Ganjada hamma fasl o'z o'rnida. Albatta, issiq... Ofoq mehnatkash ayol edi, tinim bilmasdi. Qishni qish, yozni yoz demasdi.

—Nima qilasan, undan ko'ra uy ishlari ila mashg'ul bo'lgin, — dedim bir kuni.

—Meni kechiring, mehnat yo'q joyda yomonlik bo'lur, — deb javob berdi.

Mayli, deb hali bitirmagan asarim "Xusrav va Shirin" yozishga kirishib ketdim. Tugatdim, deb xayollab tursam, bir vaqt Muhammadning yig'isi eshitildi. Ofoq... Ofoq... Keyingi ikki rafiqam ham bevaqt qazo qildi, ya'ni ular yangi bir asarimni tugallash vaqtimda bu foniq dunyodan boqiy olamga yo'l olishdi... Yo Rab, nega men har doston uchun bir rafiqani qurban qilmog'im darkor?

Men besh doston yaratdim: “Sirlar xazinasi”, “Xusrav va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Yetti go‘zal”, “Iskandarnoma” va ularni birlashtirib, “Besh xazina” deb nomladim. Men bilmas edimki, men yaratgan ushbu asarlar “Xamsa” ekan. Mening bilmay yaratgan “Besh xazinam” yillar davomida “an’anaviy” yozish usuli ila “Xamsa”chilik deyilarmish.

Meni ko‘p marta saroylarga chaqirishdi, biroq men istamadim. Chunki men saroy shoiri emas edimda. Agar men saroy shoiri bo‘lsam, to‘g‘riso‘zligimni o‘zgalarday yo‘qotaman. Bu esa qo‘rqinchli!!! Shoир erkin ijod qilishi kerak, unga buni Olloh in‘om qilgan. Men yozgan dostonlarning ichida “Layli va Majnun” nomidagi asar ham bor. Uni menga yozishni Shirvonshohlardan bo‘lmish Axsatan I buyurgandi. Hech ham yodimdan chiqmaydi, Axsatan I ning menga yo‘llagan xati: Oliymaqom shohning aytari shuki, biz o‘z so‘zimiz va amalimizga munosibmiz. Past nasabli turk –Sulton Mahmud va Qizil Arslonning senga munosabatini bilamiz. Shunday ekan, sen bizga – oliy tabaqali hukmdorga munosib asar yarat!” Bu so‘zlariga kulib shunday javob yozdim: “ Sen hech bo‘limganda davlat ishlarida sobit bo‘l, chunki sendagi insoniylik menga ko‘rinmayapti. Haqiqiy turkka o‘xsha, agar bo‘la olsang!” – dedim. Bu so‘zlarimdan so‘ng u o‘zgarganday bo‘ldi, so‘ng men ham va’damda turdim.

Men kim, Abdumuhammad Ilyos ibn Yusuf ibn Zaki Muayyad, bu so‘zlarni osmon-u falakdan sizga yo‘llayman. Umrim jonajon, onajon shahrim Ganjada o‘tdi. Ajalim yetib, Ganjada halovat topdim.

Hijriy 535-yilda tug'ildim va hijriy 598-yilda sunniy mazhabidagi musulmonlardek vafot etdim:

Oltmis uch yoshidan olti oy qadar
O'tganda, istadi qilmoqni safar.
O'tmis olimlardan so'zladi butun,
U ham ular kabi uxlaydi bir kun.

HAYOT SOVG'ASI

Bolaligim, ikki tog'imdan ayrılgan kezlarim...
“Urush, noming o'chsin jahonda!”

Mustaqillik farzandlarining imkoniyatlari ko'pda! Men ham yomon davrda yashamaganman, urush edi... Dadam..., onam... Lekin shukur, mening tog'am, Karimboy Sohiboyev, doim meni qo'lladi. Baribir, urush men kabi millionlab bolalarning xotirasiga mixlandi:

Jazirama yoz! Tabiat – go'zallikning uyi, biroq urush daxshatga boshpana! Qishlog'imizda hosildor dalalar qancha ko'p bo'lsa, paxta ham shuncha ko'p. “Har kuni Olloh frontdagи vatanparvarlar uchun bizning dalalarga quyoshti nayzasining uchiga bog'lab otadi” derdi ayam. Ayamga shu nayzalardan tegib ketgan. Ayam, Roziyaxon Vohidova qishlog'imizda kotiba bo'lib ishlaydi. Bo'yulari pastak, qotmacha, agar yuzidagi ajinlarini yozsak, yuzida oq jo'yaklar paydo bo'lardi. Men dadamga o'xshayman, bo'yim baland, haybatli, o'zim oppoqman-u, quyosh o'qi tekkan-da, qovoqliman, ko'rganlar uyquchi deb o'ylaydi, lekin aslida kam uyuqman, kechalari dilimdagi insonlarga,

olamga bo'lgan munosabatlarimdan qatralar, she'rlar bitib turaman. Hali bola bo'lganim uchun dalaga chiqmayman, kunim ko'chada o'tadi.

Bir kuni do'stim Muhammad hovliqib keldi-da, "O'rtoqlar, zo'r yangilik bor", deb qoldi. Hammamiz g'ala-g'ovur qilib ketdik, keyin "ayt" deb o'zimiz gap bermadik:

—Qo'shni mahalladagi Abdullaning onasi qorni ishib o'lganini aytmoqchisan-a? Sendan oldin eshitib bo'lgandim.

—Tavba, kamroq ovqat yesa bo'lmaydimi, biz bilan baham ko'rmaganining oqibati, mana!

—Yo'q! Eshqobilning otasidan qoraxat kelganini aytmoqchi!

—Jinni, uni kecha aytdi-ku.

—Nimalar deyapsizlar? Siz aytayotgan voqealar o'tgan haftaniki, bugun dushanbami, Hurli kelinoyi erini kutmay raisning o'g'liga tegib olibdi.

—Voy, qochib ketibdi ham, Toshkentga.

—Bo'ldi-ey! Muhammadning o'zidan eshitaylik, yangisidan bordir.

Muhammmadning ko'zlari yonib turardi:

—Men qorin to'ydirish yo'lini topdim.

Barchamiz chaqnab ketdik:

—Ayt!

—Ko'p ovqat yeymizmi, axir?

—Ayt-chi!

Muhammadning qop-qora basharasidan ter oqa boshladi:

—Faqat hech kimga aytmaysizlar!

—Hali ham.

-Akamning molxonada kunjara yeyayotganini ko'rdim...

-E, bor-e! Ayam aytganlarki, kunjara yomon ekan.

-Rost, menga ham ayam shunday degan.

Muhammad jiddiyashib:

-Ahmoqlar, hozir nimadan foyda – moldan, molni nima semirtiradi – kunjara, kunjara – qimmat!..

Shu bilan ertangi kun tushda ko'rishdik. Ha, ziyofat bo'ldi, ta'mi yomon bo'lsa ham qorinni aldadik. Ayamga bu – ordenga loyiq kashfiyotimizni aytSAM, yuzimga shunchalar qattiq tarsaki tushirdiki, unutmayman hech qachon. Hali hamon shapaloq tekkan yuzimni ushlasam ayajonim qo'llarining izini qalban sezaman. O'sha kechani hech unutmayman: Ayajonim rosa yig'ladi. Keyin bilsam, Abdullaning onasi kunjara yeb o'lgan ekan. Ayam meni yaxshi ko'rardi.

1945-yil... Yana kunlar issiq! Biroq birinchi marotaba xabar ham issiq keldi. Ha, ha... dadajonim kelyapti. Ura!!!

Ular borligida uyimizga farishtalar ham kelgan edi, lekin bizni dadam yaxshi ko'rmasa kerak, biz bilan ko'p bo'lmadi. Furqatning dadasi ko'p uylangan va Furqatlarni tashlab ketgan, balki mening dadam ham... Lekin ayam aytishlaricha, dadam yaxshi inson bo'lganligi uchun Olloh ularni ovqati ko'p joyga jo'natganmish. Ayam ham yaxshi ayol edi. Toshkentqa ko'chib bordik hamki, ular dadamlarni sog'inib ketibdi, meni tashlab ularning yoniga ketdi. Sog'inaman...

Baxtimga tog'am bor ekan. Ular yurist bo'lsa ham she'riyatni hurmat qilar, sevar edi.



Kuzning ajib kuni. Daraxtlar oltin tangalarini zaminga qarzga berdi, bahorda qaytararmish... Tabiat aytdi menga.

Uyimizga tog'am har hafta juma kuni kechasi ko'plab odamlarni boshlab kelardi. Men ularga choy olib kirganimda, suhbatlari xayolimni o'g'irlardi. Bir kuni kechasi sekingina orqa oynakka kelsam, qo'rroq barglar shitirlab ketdi. Tog'amning qo'liga tushdim. Qo'rqqanimdan qora yuzim qizg'ish rangga kirdi. Lekin rostini aytdim. Tog'am bo'lsa, qah-qah kului-da, "Qani, uyga marhamat, toychoq!", – dedi. Shu kecha men adabiyot eshigini ochganimni va unga qadam qo'yganimni bilmasdim...



Feruza Abdunabiyeva

9-sinf o'quvchisi

DUO IJOBATI

Halima Xudoyberdiyevaga bag'ishlanadi

To'qqiz yoshda edim. Xolam qishloqning faol ayollaridan. U qishloq punktiga chiqib ketgandi. Otam – dalada. Men va singlim ikkovimiz uyda o'tiribmiz. Qishloqda hamma bizni ko'rsa, onam esiga tushib, gapirib ketishaverardi. Onam paxta dalasida o'qariqda dorilangan suvni ichib, vafot etgan ekan. Ha, qismati shunday bo'lgan. Odamlar dalada paxta teraverardi, tepasidagi samolyotlar ularning ustidan dori sepib ketaverardi. Ana shunday shavqatsiz davrda yashaganmiz. Onamni men faqat tushlarimda ko'rardim, xolos. Singlimga yozgan she'rlarimni o'qib berardim. Menda adabiyotga, she'rga muhabbat otamdan yuqqan bo'lsa kerak. Chunki otam oshna-og'aynilarini uyga chaqirib kitobxonlik kechalarini uyunshirardi. O'shanda bir voqeа bo'lgandi. Otam og'aynilari bilan ichkari xonada o'tirishardi. Singillarim uxlab qolgan. Mening ko'zimga uyqu kelmadi. Birdan yotgan joyimda otamning baland ovozi eshitildi. Meni gap poylash odatim yo'q-kuya, lekin nima bo'layotganligiga juda

qiziqdim. Asta o'rnimdan turib, eshik oldiga keldim. Eshikning orqasida cho'kkalab oldim. Eshitsam ular miriqib she'r o'qishayotgan ekan. Adabiyot sirlari haqida gaplashishardi. Menda bunga qiziqish uyg'onardi. Ular har kelganida Furqat, Fuzuliy, Navoiyni gapirib o'tirishardi. Chunki uyimizda ularning kitoblaridan ko'p edi-da. To'g 'ri, ularning kitoblarini saqlash tahlikali edi. Lekin otam: "Ular bizning bobokalonimizdir. Ularning yozganidan nega bahramand bo'lmaylik!", – deb yashirib o'qirdi. Men eshik orqasida poylayotgandim, eshik birdan sharaqlab ochilib ketdi. Ichkaridan otamning do'sti chiqayotganini payqamay qolibman. U meni ko'rib qoldi:

– Voy bolam, nega bu yerda o'tiribsan?
Uxlamaysanmi?

Men indamay turaverdim. Ichkarida o'tirgan dadam: "Kel, Halima, kelaver" – dedilar. Ichkariga kirdim. Dadam: "Mana mening kichik shoira qizim", – deb maqtana ketdi. Meni esa bir chetda yuzim qizarib turaverdim. Dadamning og'aynilari: "Illoyo xalq koriga yaraydigan shoira bo'lgin, qizim" – deb duo qilib qo'yishdi. Yana qoshimchasiga aytdilarki: "Sen endi biz kelganimizda bizlar bilan o'tiraver. Zeroki, biz qanday tilda so'zlashayotganimizni sen tushunasan", – degandi.

Eh, o'sha paytlar... Dadamning og'aynilari qilgan duo amalga oshdimi deyman, men hozir xalqimning shoirasiman. Balki o'sha kitobxonlik kechalari bo'lmaganda hozir adabiyotni tushunmagan bo'larmidim? Albatta, yo'q. Buning uchun otamga rahmat, deyman. Dadam borligi uchun men shunday elda aziz bo'lib yuribman...



Dilnoza Jabborova

8-sinf o'quvchisi

“OLDIMDAN OQQAN SUV” SHE'RIGA NAZIRA

“Yashamoq farog'at, yashamoq azob,
Bekorga egilmas sizdan boshqa ko'k.
Ko'ngillarni ovlab umrim bo'pti sop,
Sizning ketishingiz xayolda ham yo'q”.*

Sizga qancha befarq bo'lmay, siz suyib,
Achchiq ko'zyoshingiz ichga yutdingiz.
Tunlar mijja qoqmasdan bedor bo'lib,
Onajonim, har dam meni kutdingiz.

Dardlaringiz to'lib – toshib ketgan dam,
Birortasin aytmas edingiz menga.
Sizdan so'rolmadim hatto ko'ngil ham,
Vaqt bo'lsa, chopibman faqat Toshkentga.

Shahdan hech vaqo topganim ham yo'q,
Eng aziz insonim – sizni yo'qotdim.
Qutqara olmasdan aybdor dilni,
Vijdon azoblarin qa'rige otdim.

*Halima Xudoyberdiyeva satrlari



* * *

Men kichik daraxtman,
mustahkam daraxt,
Qishlarning zulmiga bera olgan dosh.
Ba'zan qahratonlar etgusi karaxt,
Ammo erta ko'klam ko'taraman bosh.

Men cheksiz osmonman,
tubi yo'q osmon,
Yulduzlar quvonchim – hamisha porloq.
Horg'in bulutlari – mendagi armon,
G'azabim, nafratim – momoqaldiroq.

Men kuchli shamolman,
dovrug'li shamol,
Anglay olmasman hech tabiat sirin.
Borligim – bilmadim kimlarga malol,
Goho mayin yelman, gohi izg'irin.

Men asli insonman,
oddiy bir inson,
Goh quvonch tanimas,
goh bilmas qayg'u.
Aslida men emas maqsadlar osmon,
Shamollardek kuchli qalbdagi orzu.

HAYOT KITOBIM

Inson muhabbatdan yaralgan, balki,
Balki, q'azab erur unga poydevor.
Ayrim insonlardan ranjisam hamki,
Ba'zi ko'ngillardan qalbim umidvor.

Ba'zan tark etmasdan mehr qalbimni,
 Sadoqat-la yashar bu bir qoida.
 Lekin sinagancha nafrat sabrimni,
 Qo'zg'olsa tinch bo'lmas, turmas joyida.

Dengizlar qoshiga oshiqsa yurak,
 Tomchilar chertganda hislar torini.
 Yulduz shu'lalari aytganda ertak,
 Men ham so'zlar edim dilda borini.

Quvonch bekatiga olganimda yo'
 Manzilim yoritsa umr oftobim.
 Yuragim to'rida hissiyotlar mo'l,
 Shular bilan go'zal Hayotim.

* * *

Yolg'izlikda yolg'izlik bilan,
 Kezdim xayol ko'chalarini.
 She'riyatning mamlakatidan
 Izladim baxt kechalarini.

Bo'ldi!
 Yetar!
 To'lib ketdi dil,
 Talpinadi sirlar qay tomon?
 She'r-la dardkash tutingan ko'ngil,
 She'rdan boshqa kimga aytaman?

Chalkash, daydi tuyg'ular bilan,
 Tun qo'yniga kirib boraman.
 O'sha tanish chigallik bilan,
 Yangi tongni qarshi olaman.



Dengizlarga yetaklasin kun,
 Tanbal ruhim bir zum uyg'otsam.
 She'riyat bir dengiz bo'lsa-yu,
 Men o'zimni dengizga otsam.

* * *

Yashashga intilib yashayapman men,
 Avzoyi buzilgan olam ichida.
 Qorga qo'yilgandek qaqshayman men,
 Taqdirdan ne kelsa bariga chidab.

Ichimda bo'ronlar, sirtimdan sukut,
 Ko'nglimda g'ashliklar, yuzda tabassum.
 Tug'yonlar tutqunga tushgan qush yoxud
 Nurlari adadsiz quyosh men uchun.

Yongan yuragimda yoniq hislarim,
 Otash she'rlarimga qo'yimoqda tamal.
 Ong-u tafakkurim, qalbim, o'ylarim
 Ijod tomonidan etilgan qamal...

Butun hissiyotim etilgan qamal!

MEN KETYAPMAN...

"Men ketyapman, sen orom olgil",*
 Rohatingga solmayin soya.
 Yuragimni qo'lda tutgancha,
 Barchasiga yasab nihoya.

*Halima Xudoyberdiyeva satrlari

Men ketyapman, sen orom olgil,
Mayli bir xat tashlab ketaman.
Na bir ozor va na bir so'zsiz,
Yuragingni g'ashlab ketaman.

Men ketyaman, sen orom olgil,
–Izlamagin – deya so'rayman.
Chunki endi manzilik boshqa,
Uni hatto o'zim bilmayman.

Men ketyapman, sen orom olgil,
Suratlarim yoqmagin faqat,
Axir o'zim yonib bo'lganman,
Suratlarim qilolmas toqat.

Men ketyapman, sen orom olgil...



Farangiz *Yigitaliyeva*

8-sinf o'quvchisi



BAHOR

Sahardanoq mayin shabboda esib,
Ohista tebrandi barglar va gullar.
Uchib keldi qushlar qanotin yozib,
Bahor kuyin aytib kuylar bulbullar.

Zilol suvlar oqar sharqirab soydan,
Ochilar qirlarda maftunkor lola.
Tabiatning olib husnini oydan,
Olamga chiroyin etar havola.



Jasmina Tursunaliyeva

8-sinf o'quvchisi

* * *

"Shu kunlarda bahorga zorman,
Navjuvonlik o'ti tanda yo'q".^{*}
Ruhimdamas, tanimda borman,
Ojiz tanam qizdirmoqda – o'q.

Shu kunlarda bahorga zorman,
Yod olaman sen bor kunlarni.
She'rlarim-chi – mahzun, bedorman,
O'tkazaman sensiz tunlarni.

Shu kunlarda bahorga zorman,
Xotiralar ezar yurajim.
Qalbim nuri so'ngan, bemorman
Bu g'amlar – yuk, ezar kuragim.

Shu kunlarda bahorga zorman,
Hayot, faqat to'g'risini ayt.
Kuzdek qurib qolgan bahorman,
Kel, ko'nglimning bo'stoniga qayt.

^{*}Zulfiya Isroilova satrlari



BUYUK YO'L

Hashamdar va yorug', keng, katta so'qmoq,
Quyosh e'tibori tushgan ajib yo'l.
O'ziga chorlaydi, kerakdir o'tmoq,
Chechaklar-la to'lgan unda o'ng-u so'l.

Bu yo'lda ming turfa izlar porlaydi,
Ulug'larga buyuk manzil bo'lgan yo'l.
Bu yo'l har kun har dahoni chorlaydi,
O'tganlar ta'rifin yozolmaydi qo'l.

Tunlari yoritar uni oy nuri,
Bu yo'lda g'unchalar ochirmoq farzdir.
Muattar iforga to'ldirib uni,
Borsang burching ado, bormasang qarzdir.

Tarixda muhrlan, qoldir yaxshi iz,
Har bir kuchli inson turar ahdida.
Bu ulug' gulshandan sen mevalar uz,
Buyuklar yo'lidan bormoq vaqtida.

ONA

Ko'zimni ochdim va men uni ko'rdim,
Qarshimda turardi nurli bir xilqat.
Ilk ko'rganim udir, eng go'zali ham,
Issiq quchog'ida topdim halovat.

Kimligin bilmasdim, ammo men uni
Hech qanday ziynatga alishgim kelmas.

Atak-chechak qildim u yonimdadir,
Yurak tanisa ham, aqlim tanimas.

Sezaman, u menga juda yaqin zot,
Men uchun dunyoda udir bir dona.
Bilaman, yo'qotsam, topilmas aslo,
Shirin so'z-la uni atadim – Ona.



Nozima Qosimova

8-sinf o'quvchisi

GULISTONIM

Qushlar uchsa, qanoti kuygan,
Shamollari qumlarining uygan,
Bobolarim arig'ing o'ygan,
Tarixdagi Mirzacho'limsan,
Bugun mening Gulistonimsan.

To'qaylaring bog'ga aylandi,
Chamaningga ko'nglim boylandi,
Mehnat qilgan xalqing siyandi,
Moziydag'i Mirzacho'limsan,
Bugun mening Gulistonimsan.

Osmono'par binolaring bor,
Hilpiraydi bayroq ham viqor,
Madhing kuylab, aytayin alyor,
O'tmishdag'i Mirzacho'limsan,
Bugun mening Gulistonimsan.

Qamishlaring o'rnilida gullar,
O'tdi qancha oylar-u yillar,
Gulzoringda sayrar bulbullar,
Ertakdag'i Mirzacho'limsan,
Bugun mening Gulistonimsan.



Charos Shamiddinova

8-sinf o'quvchisi

IZHOR

Har tongda peshonam silagan qo'llar,
 Siz sabab har yerda charog'on yo'llar,
 Suyangan tog'imsiz, dardlarim olar,
 Mehr ummonidan topgan durlarim,
 Aziz ota-onam, qalbi nurlarim.

Qalbimning oromi mehr-u taftingiz,
 Baxtliman yuzimni tutsa kaftingiz,
 Hayot maktabidir oliy sabringiz,
 Mehr ummonidan topgan durlarim,
 Aziz ota-onam, qalbi nurlarim.

Istagim: yonimda bo'ling to abad,
 Shunda orzularim chiqarar qanot,
 Duoyingiz menga keltirar omad,
 Mehr ummonidan topgan durlarim,
 Aziz ota-onam, qalbi nurlarim.



NAVRO'Z

Bahor kulib turar yurtim poyida,
 Asta-sekin kelar qadamin tashlab.
 Daraxtlar bezanar turgan joyida,
 Keladi ortidan oftobni boshlab.

Murg'ak go'dak misol o'smoqda lola,
 Yuzga kulgi oldi butun mavjudot.
 Yurtimdan olisga ketmoqda nola,
 Hatto yaproq qushday chiqarar qanot.

Ko'kda quloch ochdi ko'klam lochini,
 Bahor taftin tuydi har makon, har joy.
 Yana ko'klam kiyidi billur tojini,
 Oy kutib o'tkazdi tunlarni bedor.

Quyosh nurlaridan baxtga to'ldi dil,
 Mehrdan ochmoqda kurtaklar ham ko'z.
 Quvonch iforini taratar ko'ngil,
 Kelmoqda bahorning yuragi – Navro'z.

BAHOR...

Qaldirg'och qanot qoqib,
 Bahordan berdi darak.
 Qalblarga olov yoqib,
 Ochilmoqda boychechak.

Ariqlarda zilol suv,
 Qor-u muzlar to'kar yosh.

Bahor bazmin nishonlab,
O'ynab – kular keksa, yosh.

Osmonda taftli quyosh,
Jilo bilan boqadi.
Bilmam, balki, unga ham
Bahor fasli yoqadi.

Yilning sehrli bazmi –
Navro'z bahor faslida.
Ushbu bayram o'zbekning
Yangi yili aslida.

Daraxtlar, yosh nihollar
Kiyar yam-yashil libos,
Gulga burkanar yerlar,
Bu faqat bahorga xos.

Yer-u osmon qirlarga,
Bahor beradi husn.
Fasllar malikasi –
Bahor yillarga ustun.



Zilolabonu Rustamova

8-sinf o'quvchisi



JILG'AMAN

Men hali jilg'aman, asov daryomas,
G'ayratim o'zimga sig'maydi ba'zan.
Ammo irmoqlarga yetib olsam, bas,
Hayot ummoniga yetaklar o'zan.

Bilaman, yo'limni to'sarlar hali,
Haqlik-nohaqlikning ming bitta toshi.
Dengiz to'lqinicha yo'q hali holim,
Biroq egmagayman nohaqqa boshim.

Hayot – ummon meni chorlar bag'riga,
Mayjiga ko'milib kelar yashagim.
Mayli chulg'ab olsin tubsiz q'a'riga,
Qayg'umas, shodlikdan ko'zim yoshlagum.

Yolg'izlik atalgan sahrolar aro,
Umid jilg'asidek oqqim keladi.
Goho men Shiroq-u ayriliq – Doro,
Kurashga intilib, yengim keladi.

ISTAK

Yulduzlarga termilaman jim,
 Oydin tunlar yolg'iz qolgan dam.
 Koshki bo'lib qolsam munajjim,
 Va rom ochsam kelajagimdan.

Jimirlamay turing bir nafas,
 Sanab olay sizlarni bir-bir.
 Saflaringiz buzilsa bexos,
 Chigallikka to'ladi taqdir.

Barchangizda mavjud bir xislat,
 Darak berar baxtli kunlardan.
 Tavba deyman, axir tabiat,
 Yomon kunni olar qaylardan.

Qani endi, biz ham insonlar,
 Yulduzlarday bo'lsak pok, inoq.
 Qolmas edi dilda nuqsonlar,
 Zamin aro bo'lmasdi nifoq.

* * *

Osmon tiniq, biram musaffo,
 Bejirimdir zangor libosi.
 Jilmayadi quyosh ham hatto,
 Tabassumin yo'q intihosi.

Bahramand ul nurli ziyodan.
 Daraxtlarda potirlar kurtak,
 Qirg'og'idan toshgan daryodan,
 Suzib chiqar yangi bir ertak.



Parvozida turib muallaq,
Kuylashadi qushlar sho'x navo.
Tabiat bu tilsimga ilhaq,
Ona zamin berar aks-sado.

Bugun yurtim har qarichida,
Kezayotir bahor nafasi.
Sog'inch sig'may ichi-ichiga,
Duk-duk urar yurak qafasi.

* * *

Siz oson o'ylaysiz ash'or bitmakni,
Ko'ngil sirlarini ko'chirmak oqqa.
Bilmaysiz, yozganim – oddiy ermakni,
So'nggi tomchi qonim ila yurakdan.

Siz hali bilmaysiz, tongni kutmoqlik,
Bedorlik shunchaki termulish emas.
Qalbdagi alanga u sog'inch otlig',
Sevoljan yurakka hech tinchlik bermas.

Siz meni qiynaysiz, she'ring ko'p og'ir,
Yengil-yelpisini yozolmas qalam.
Netay, hijronlarda kuydi-ku bag'ir,
Kim axir she'r yozar chekmasa alam?..



Gulnora Turg'unboyeva

8-sinf o'quvchisi

* * *

Yomg'ir mungli chertmoqda torin,
Jim tinglaysan, tolib xayolga.
Zil dardlarin to'kmaydi borin,
Maysalarini qo'yib malolga.

Ne qilishin qoladi o'ylab,
Yurak bag'ri g'ussaga to'lib.
Tomchilarga hasratin so'ylar,
Lek ololmas g'ammlarin yulib.

Xiyol o'tmay cho'kar sokinlik,
Xayolida chalkashdir o'ylar.
Ichida bir tuyg'u hokimlik...
Botqoqlikka to'ladir yo'llar.



Munojot Shakarova

8-sinf o‘quvchisi



CHORASIZLIK

Nega isyonlarim befoyda, aytинг?
 Ko‘ksimda dardlarim to‘lib ketdi-ku.
 Yoshligim, sog‘indim, yonimga qayting,
 Ko‘nglim pora-pora bo‘lib ketdi-ku.

Azoblar qiyndi meni har nafas,
 Chorasiz kunimda sinaydi hayot.
 Ojizligim nima?
 Bering biror sas,
 Bir taskin berishga topilmas bayot.

Bunchalar beshafqat bo‘lmasa dunyo,
 Oq‘rigan qalbimga bo‘lmaydi malham.
 Menden boshqa odam yo‘qdayin go‘yo,
 Qalbimga in qurib yashayotir g‘am.

Nega isyonlarim befoyda, aytинг?



Zulhayo Mingboyeva

7-sinf o'quvchisi

* * *

Tonglarga dodlaydi namiqqan diydor,
Chak-chak... chakki otib ketdi sukunat.
Gullamoqchi bo'lar, unmoqchi bo'lar
Gullarning yaprog'i ostidagi baxt.

Borliqning jariga solmasdan quloq,
Ishqnomha yo'llayman yomg'ir tilida.
Endi sendan javob kutmayman, yo'q-yo'q,
Endi urar yurak Ollohol yo'lida!

Chak-chak... Chakki otib ketdi sukunat...

* * *

O'zin osib qo'yib ingraydi soat,
Armonning qadamin tezlatib "chiq-chiq".
Kiprik qovushmoqqa topmaydi imkon,
Qochoq tuyg'ularim tongga qorishiq.

Xayol sarhadlarin bosib izma-iz
Topsam ham ko'klamning ilk kuni, ishon.
Yetolmasam agar, yurakjon, kechir!
Ertaga bahorning kelishi yolg'on!



ABDULLA ORIPOV

Neko‘z qishlog‘ining sodda o‘g‘loni,
 Quyoshda toblangan yuzlari kulcha.
 Turfa o‘yga tolib, goho to‘lg‘onib,
 Satrlarin bitgan qalbga yetguvchi.

Urushning shamoli endi tingan payt,
 Ko‘ngil sahnasida yangrar ovozi.
 Xayolin o‘g‘irlab ijod, she’riyat,
 Yulduzlardan baland bo‘lgan parvozi.

Xuddi shu alfovza chaqnadi chaqin,
 Teran fikrlarin dilga jo aylab.
 Va keyin quyoshdek porladi yorqin,
 Xalqning yuragiga nurlarin joylab.

So‘ngra zabit etgancha ko‘ngillar qasrin,
 Bag‘rida o‘tkazdi har bir onini.
 Yashadi mangulik she’riyat asrin,
 Ijodga bag‘ishlab yurak – jonini.



Mushtariy Toshpo'latova

7-sinf o'quvchisi

ONAJON – O'ZBEKİSTON

Tog'lari baland, mag'rur,
Yashnab turar bog'-rog'i.
Qalbimizga sochar nur –
Qaynoqqina quchog'i.

Yurakdag'i bir go'sha,
Jilvalidir, betakror.

Boqsam, quvonchim jo'shar,
Sirli, ajab sehri bor.

Jannatmonand islari,
Gullaridir rang-barang.
Ilhomlanib hislarim,
Parvoz qilar, bir qarang.

Musaffo osmonida
Qaldirg'och yozar qanot.
Yuksalar har onida,
Saodatdan bo'lib shod.

Kundan kun ochar chiroy,
Bu diyor misli bo'ston.
Yuragimdan olgan joy –
Onajon – O'zbekiston.



KO'NGIL KO'KLAMI

Lolalarga burkanar
 Qir-adir bahor payti.
 Mo'jizalar yuz berar,
 Go'zallik yana qaytib.

Nafislikka juda boy,
 Shudir kelinchak fasli.
 Borliqdagi bor chiroy –
 Bahor ko'rkidan asli.

Bahordir dala-bog'ni
 Bezantirgan berib zeb.
 Nur to'ldirib har yoqni,
 Yashar dilning g'amin yeb.

Chiroyda yo'qdir tengi,
 Turfa gullar ochilgan.
 Ko'klam nur bo'lib endi,
 Yuraklarga sochilgan.

Shirin nafasin tuyib,
 Rang-barang bo'lar borliq.
 Har bir inson ham suyib,
 Sezar chin baxtiyorlik.

MAQTANCHOQ SHAFTOLI

Bir kuni shaftoli maqtanib qoldi,
 Hammadan shirinman – deya jar soldi.

Bundan shamol g'azab otiga mindi,
Ko'p o'tmay daraxtning shoxlari sindi.

Shaftoli tanida og'riq sezildi,
Jarohatlar olib – bag'ri ezildi.

Bog'bon kelib qoldi so'ng o'sha chog'da,
Shaftoli yotardi to'kilib bog'da.

Qurisa – qoqisi foyda bo'lar deb,
Tomga joylashtirdi, qishning g'amin yeb.

Biroq to'la ekan qushlarga ovul,
Ular bog'bon yo'q payt qildi tanovul.

Do'stlar, shuning uchun maqtanmoq yomon,
Kamtar bo'lavering har qanday zamon.

Kimki gar maqtansa, voy bo'lar holi,
Mana maqtanolmas endi shaftoli.

MAJNUNTOL XAYOLLARI

O'sar daraxt suv bo'yida,
Sochlarni olgan tarab.
Turfa xayollar o'yida
Sukut saqlar suvga qarab.

Boshini ham egib olgan,
Suvga qilib ehtirom.
Jimliklarga qulq solgan,
Tabiatni etib rom.



O'tar kuni, o'tar yili,
Tur mush tarzi shunday hol.
Suv tutgan soyga egilib,
Kunin o'tkazar majnuntol.

BAHOR BAYRAMI

Ko'klamoyim keldi yurtimga,
Gullarining bo'yin taratib.
Qushlar uchsa, shodon yurdim-da,
Sayrashlari dilim yayratdi.

Bahor fasli kelganda kirib,
Nishonlanar rango-rang bayram.
Dillarimga quvonch to'ldirib,
Bulbullar ham kuylardi bu dam.

ONAJONIM

Dilga doim mehr bergen,
Xushboq'bon – mehribonim.
Ezgulikning gulin tergan,
Ezguparvar onajonim.

Ko'targuvchi ko'nglimni,
Ko'ngli ko'r kam dunyodir.
Zimistonda yo'limni,
Yorutguvchi ziyodir.

XAZONLAR HAYOTI

Kuz fasli kelgan damda,
Shamol esganda mayin.

Daraxtlar har qadamda
Barg to'kar oltindayin.

Suvning yuziga yaproq
To'shalar ko'rpadayin.
Suzib yursa-da, biroq
Solib borar kun sayin.

DARAXTZOR

Daraxtlar juda ko'rksam,
Qomatlari chiroyli.
Tabiat uchun har dam,
Har biri katta boylik.

Manzara qilar hosil,
Ba'zisi meva tuyar.
O'z o'rni bor munosib,
Barchasini dil suyar.

TABIAT

Osmon to'ldi qora bulutga,
Yomg'ir sekin yog'a boshladi.
Har tomchidan chekib aziyat,
Ko'zlarini asta yoshladi.

Bugun yerga alamin aytib,
Ko'z yoshiga g'arq bo'ldi dunyo.
Uni ko'rib bechora quyosh,
Ko'rpasiga ko'mildi go'yo.

Hamon yig'lar bechora osmon,
Tugamaydi alam va hasrat.
Tomchi dilni to'ldirdi yomon,
Ko'kdan so'rар quyosh ham shavqat.





Surayyo Abdunabiyeva

7-sinf o'quvchisi

YURTIM MADHI

Vatanim – O'zbekiston,
Biz bag'ringda doim shod.
Hur o'lkasan, jonajon,
Oshyonimsan umrbod.

Basavlatdir tog'laring,
Qalbimga zavq qo'shasan.
Chiroylidir bog'laring,
Tengsiz so'lim go'shasan.

Sevaman seni dildan,
Faxr-u iftixorimsan.
Mehring jodir ko'ngilda:
Borlig'imsan – borimsan.

Mehringni dilga surtib,
Go'zal O'zbekistonim,
O'zingsan baxtlar yurti,
Mening fayzli bo'stonim.



QALAM VA O'CHIRG'ICH

Bir bola misoli aslida qalam,
O'chirg'ich esa bu - mehribon ona.
Qalamning xatosin tuzatib har dam,
Tinimsiz yonida bo'lar parvona.

Umrini bag'ishlab, qalam g'amin yeb,
O'chirg'ich ham ne-ne zahmatga to'yar.
Chizgan rasmlarin go'zal bo'lsin deb,
O'zini doimo azobga qo'yay...

YURTSEVAR SHOIR

Buyuk mamlakatning tanti o'g'loni,
She'rclarin barchasi qalbiga doir.
Bir umr yashadi olovday yonib,
Diyorin ardoqlab yurtsevar shoir.

Ko'ngli ham tozadir oq qog'oz misol,
Zahmatkash bu inson dillarga suyuk.
She'rлari barchani qoldirgandir lol ,
Dunyoni zabit etgan neko'zlik buyuk.

SHE'RIYAT QIROLICHASI

Halima Xudoyberdiyeva yodi

She'riyat dunyosin porloq yulduzi,
Sizning ijodingiz go'yo bir bo'ston.

Charaqlab turadi kecha-kunduzi,
 Bu yulduz so'nmagay aslo, hech qachon.
 Yoritib turadi ko'ngillarni ham,
 Nurlari yurakka bag'ishlar ilhom.
 Va o'chmas hamisha, abadiy har dam,
 Va sizga yo'qolmas buyuk ehtirom.

HAYOT SIYRATI

G'unchalarning titroq bargida,
 Bulbullarning yoshini ko'rdim.
 O'ynab oqqan sho'x irmoqlarda,
 Yalpiz bilan chayqalib turdim.

Asalari mehnatkash inim,
 Erta tongdan uyg'onibdilar.
 Kapalaklar chiroyli singlim,
 Qanolari tovlanibdilar.

Mana quyosh tog'larni yoqdi,
 Chapak chalar teraklar shodon.
 Zamin uzra mehr-la boqdi,
 Hayratlarda qoldirib bu on.

Shu tariqa ona tabiat,
 Salom aytar har bir insonga.
 Va uyg'onib sizlar ham faqat,
 Shukr qiling bebbaho onga.



“OMON BO‘LING” SHE’RIGA NAZIRA

Nafsingizga bo‘lmanggiz qul,
 Yomondir shul, ayyordir ul.
 Nopok ishga urmanggiz qo‘l,
 Halol bo‘ling, halol bo‘ling.

Bilim izlab, toping kamol,
 Bo‘y ko‘rsatsin nurli jamol,
 Kelmasin bu so‘zim malol,
 Hayvon bo‘lmang, inson bo‘ling.

Hayot yo‘li emas ravon,
 Umr o‘tib borar karvon.
 Olloh o‘zi doim sarbon,
 “Omon bo‘ling, omon bo‘ling”.*

*Halima Xudoyberdiyeva satrlari



Ruxshona Abdullajonova

7-sinf o'quvchisi

VATAN HISSI...

Mangu yashaysan dilda,
Vatan – mening borimsan.
Qalbim senga intilgan –
Iftixorim – orimsan.

Yuragimda jo'sh urar,
Shod-hurramlik bulog'i.
Iforlarining ufurar,
Yashnatib ko'ngil bog'in.

Quchog'ing issiq-qaynoq,
Taftidan mehrim ortar.
Qayerda bo'lsam har choq,
Doim o'ziga tortar.

Eslatadi onamni,
Borligingni tuyaman.
O'zingni – yagonamni
Onamdayin suyaman.

Onajonim singari
G'amxo'rimsan – borimsan.
Seni suyganim sari
Yuksalajak orimsan.



“KO’RGANMIDING KO’ZLARIMDA YOSH” SHE’RIGA NAZIRA

“Sog‘inganda izlab bir nishon,
Qabring tomon olar edim yo‘l.
Keltirarding menga bir zamon,
Endi har chog‘ men eltaman gul”.*

Jilov bilmas qalbda tuyg‘ular,
Lek sen yo‘qsan, qiynaydi azob.
Ko‘zlarimga kelmas uyqlular,
Sen haqingda o‘ylayman har chog‘.

Sel bo‘laman qabring yonida,
Xotiralar tinch qo‘ymas sira.
Tosh qotgancha boshing ustida
Yosh to‘karman, tinch qalbim yara.

Sog‘inchlarining jonga xaridor,
Qalbga ajib savdo solursan.
O‘tsa hamki oradan ming yil,
Yuragimda mangu qolursan.

“QUSHLAR HAM YIG‘LAR” SHE’RIGA NAZIRA

Ayvon uchun ustun bo‘lay deb,
Terakzorni tark etdi terak.
Endi bizning bu ishimiz deb,
“Tunda Qushlar yig‘lasa kerak”.*

*Zulfiya Isroilova satrlari

Zir aylanib ona chumchuq ham,
Bolalarin qidirar halak.
Ko'kda parvoz qilib u har dam,
“Tunda u ham yig'lasa kerak”.*

Yangi inni qurmoqlik uchun,
Xas tashiydi tinimsiz beshak.
Yuragim ham bugun bir tugun,
“Tunda u ham yig'lasa kerak”.*

*Muhammad Yusuf satrlari



Gulsanam Norqulova

7-sinf o'quvchisi



KO'KLAM

Hamon yodimdadir qushlar xonishi,
Ovozini olib kelgan yellar ham.
Maysalarning dir-dir titrab nolishi,
Sho'x shamollar dutorini chalgan dam.

Tabiatning husni aks etar unda,
Har zamon boqsangda to'kmaydi ohor.
Ko'rarsan maysalar ustida lola,
Yashil bargga burkanib keldi navbahor.


OSMON KO'ZYOSHI

Osmo ko'z yosh to'kar, tinmaydi hech ham,
Tingisi kelmaydi negadir bugun.
Odamlarning bergen aziyati ham,
Shunchalar ko'pmikan, dunyoga butun?

Dardi bisyor ekan, ichida afsus,
Bugun yengil tortdi, to'kib barini.

Barglarga aytadi pichirlab bir so'z,
Yaproqlar tinglaydi uning zorini.

Mana yomg'ir tindi, bo'lib osuda,
Tuni bilan yog'di, tinmadni bir on.
Bulutlar chekinib osmon ko'ksidan,
Quyosh bosh ko'tardi falakka shodon.





Dilnoza Eshqulova

7-sinf o‘quvchisi



BAYROQ

Yurt bayrog‘in ko‘ksimga qadab,
Har mavjidan olaman nafas.
Gar bo‘yiga bo‘y qo‘shsam sharaf,
Mendan baxtli inson topilmas.

Hilpiragan bayroq g‘amin yeb,
Yashamoqlik – asli ulkan baxt.
Butun dunyo hayron qolsin deb,
Yashnataylik misoli daraxt.

Biz shu yurting o‘g‘il-qizlari,
Maqsad sari tashlaymiz qadam.
Maqsadimiz bir xildir bari –
Bayrog‘imiz ko‘tarmoq har dam.



Odina Yalchiyeva

7-sinf o'quvchisi

QALBIMDAGI ARDOG'IM USTOZ...

Mashaqqat yo'lidan boryapmiz shaxdam,
To'siqlar duch kelsa-yengamiz barin.
Quyoshimiz bordir biz bilan har dam –
Ziyosi yetaklar maqsadlar sari.

G'amxo'rliqi ila yorishadi shuur,
Uqtirar hayotning turfa sabog'in
Tuhfa etib nurli ilm-u tafakkur –
Doimo yashnatar ko'ngillar bog'in.

Shukurlar aytaman, sevinchga to'lib:
Siz borsiz, dunyoda yorug' ongimiz.
Va qayta-qaytadan munavvar bo'lib,
Qalbimizda otar ilm tongimiz.

* * *

Qushlarning kuylashi ulashar shodlik,
Yurtimning quvonchi yetdi nahorga.
Bulutlar ortidan ergashar soflik,
Demak, bu yashillik monand bahorga.



Ko'klamning nafasin keltirdi yellar,
 Bahorning madhini kuyladi yillar.
 Deraza oldida gulladi daraxt,
 Tabiat uyg'ondi, bu qandayin baxt.

YOLG'ON

Haqiqat achchiqdir, shirindir yolg'on,
 Deyishar go'daklar yolg'on so'zlamas.
 Balki, yolg'on ichra yashamoq oson,
 Balki, yolg'on bir oz qildirur havas.

Yolg'on so'zlaganni suymas Xudo ham,
 Ba'zi bir insonlar anglamas buni.
 Yolg'onchiga bo'lmas to'g'rilik hamdam,
 Yolg'on gapiradi tinmay har kuni.

Bir yolg'on ortidan ergashar yolg'on,
 Vale umri qisqa, albat, yanchilur.
 Dono xalqimiz ham takrorlar har on:
 "Yolg'on so'z bir kuni yoqadan chiqur".*

VATAN

O'zing mening – shavkatim, shonim,
 O'zing mening – nomusim, orim,
 O'zing mening – otashin jonim,
 Sen g'amxo'rim – onajon Vatan.

Tomirimda – sen oqqan qonim,
 Sening uchun fido bu jonim.

*O'zbek xalq maqoli

Sevinaman yuksalgan chog'ing,
Erkalaydi g'amxo'r quchog'ing.

Senga sodiq farzand bo'lamiz,
Sen – qalqonim, otajon Vatan.
Toleyingdan nurga to'lamiz,
Qalbimdasan, Vatanim har dam.

UNUTILMAS SABOQ

Orif mактабда о'qigan paytlarida, darsning ikkinchi yoki uchinchi soatlarida kirib kelar, uyidan esa ertaroq chiqib, o'yingohga borib, dars boshlanganini ham bilmay qolardi. Ustozi nima uchun kech kelganini so'rasha, u ukasiga qarab turganini yoki onasi betobligini aytib, yolg'on gapirar edi.

Kunlardan bir kuni Orif o'yingohda o'ynab kun qanday kech bo'lib qolganini bilmay ham qolibdi. Aksiga olib, o'sha kuni yomg'ir ham yog'ibdi. U shoshganicha uyiga qarab yugurib ketar ekan, yo'lda yiqilib, ust-boshi kir va yuzlari shilinib ketibdi. U uyiga kirib borar ekan, onasi Orifni ko'rib, qo'rqib ketibdi va nima bo'lганини о'г'лидан со'rabdi. Orif nima deyishni bilmay, og'ziga kelgan birinchi so'z "Ustozim" deya javob beribdi. Onasi g'azab otiga minib, darhol o'g'li bilan mактабга boribdi. Direktor xonasiga kirib, ustozini chaqirtiribdi. Ustoz xonaga kirar ekan, Orifning ahvolini ko'rib hayron bo'libdi va: "Orifjon, senga nima bo'ldi, bolam?" – deya savol bergen ekan, Orif juda qattiq yig'lab yuboribdi. Orifning onasi ustozini juda qo'pol so'zлар bilan haqorat qilibdi. Ustozi nima bo'layotganini tushunmay, Orifning onasiga yuzlanibdi. Orifning onasi bo'lган voqeани aytib beribdi. Ustozi bugun Orifning mактабга kelmaganligini, doimo darsga kech qolishini, sababini so'rasha, har xil bahonalar qilishini so'zlab beribdi. Buni qarangki, "Ko'za

kunda emas, kunida sinadi” deb bejiz aytishmas ekan. Orifning yolg'oni fosh bo'libdi va ustoziga qilgan tuhmatini, yolg'onlarini tan olib, juda afsuslanibdi. Bu vaziyatda onasini ham noqulay ahvolga solibdi. Orifning onasi direktori va ustozidan uzr so'rab, uyiga qaytibdi. Yo'l bo'yи Orifga tanbeh berib ketibdi.

Ertasi kuni mакtabga ertaroq borsa sinfda ustozи o'tirgan ekan. Orif yerga qarab salom beribdi va ustozining ko'zlariga qaray olmay, kechagi bo'lgan ishlari uchun uzr so'rab, yig'lab yuboribdi. Ustozi esa uni bag'riga bosib, uni kechiribdi.

Orif shu kundan boshlab maktabga doimo o'z vaqtida keladigan, hech qachon ustoziga yolg'on gapirmaydigan bo'libdi. Shunday qilib, ustozlar doimo o'z o'quvchilariga mehribon bolishi, yomonlikni ravo ko'rmasligi, to'g'ri yo'lga boshlash zarurligini tushunib yetibdi.

QOSIM OTA

Zomin tog'larining chekka qishlog'ida Qosim ismli bir otaxon yashar edi. Qosim otaning sochlariга oq oralagan, to'qson yoshlarga borib qolgan nuroniy otaxonning besh qizi va besh o'g'li bor edi. Hamma farzandlarini o'qitib, uyli-joyli qilib bo'lgan, ro'zg'ori to'kin-sochin, fayz-u barokatli, baxtli oilalardan biri edi. Qosim ota shu kunga yetguncha juda ko'p sinovlarni boshidan o'tkazgan.

Ayni yosh, navqiron paytida urush boshlanib, qishlog'idagi barcha tengdoshlari singari urushda qatnashgan va bir oyog'ini tank bosib ketgan, bir oyoqsiz qolgan. Urush tugab, o'z uyiga qaytgach

Qosim otani ko'rib uyidagilari xursand bo'libdi. Biroq bir oyoqsiz qolganini ko'rgan onasi yig'lab yuboribdi, lekin buni o'g'liga bildirmabdi. Qishloqdagilar Qosim otani qo'lтиq tayoqda yurganini ko'rib, uni Qosim ota emas, Qosim cho'loq deb atay boshlabdi. Bundan Qosim ota juda qattiq xafa edi. Kunlardan bir kuni Qosim otaning ota-onasi o'g'liga yasama oyoq sotib olibdi. Endi Qosim otaning qo'lтиqtayoqda yurishiga ham hojat qolmaydi. Erta tongda, nonushta paytida ota-onasi Qosim otani *uylantirmoqchi ekanligini* aytibdi. Qosim ota bundan juda xursand bo'libdi, lekin "Men cho'loq bo'lsam, menga kim ham qizini berardi?" debdi. Shunda onasi "Men senga o'zim topaman kelinni" – deb, bir qiznikiga sovchilikka boribdi. Shunda qizning ota-onasi: "Mayli, uchrashib ko'rishsin, bir-birlariga yoqishsa, to'yni boshlaymiz" – deyishibdi. Anhor bo'yida ikki yosh uchrashibdi. Qosim otani cho'loqligini bilgan Nazira xuddi ustidan kulganday: "Men cho'loqqa erga tegmayman" – debdi. Bundan Qosim otaning ko'ngli ranjibdi. Onasi qayoqqa bormasin, cho'loqligini bilgach, unga hech kim qizini bermabdi. Hatto:

"Bu cho'loq avval o'zini boqib olsin, xotinini qanday boqadi?" deganlar ham bo'ladi. Qosim otaning otasi bir do'stinikiga ziyofatga boradi va o'g'lini *uylantirmoqchi ekanini*, lekin hech kim qizini berishini istamayotganini aytadi. Shunda do'sti: "Mana men senga qizimni beraman, cho'loq bo'lgan bo'lsa, Vatanimiz uchun cho'loq bo'lgan" deb ko'nglini ko'taradi. Qosim otaga Donoxon ismli oqila, aqlli, odobli qiz nasib etdi. Hayotlari davomida hech qachon Qosim otani cho'loqligini yuziga solmaydi. Qosim ota



uylangandan so'ng, uni ishga taklif qilishadi. Buni qarangki, tez orada "Qosim cho'loq" emas, "Qosim boy" deb chaqirisharmish.

Kunlardan bir kuni Qosim ota bozorda aylanib yursa, ko'zi bir tanish chehraga tushibdi. Tanish chehra esa Qosim otadan yuzini olib qochibdi. Bu o'sha, cho'loqligini yuziga solgan Nazira edi. Naziraning qo'llari qavarib ketgan, yuzlarini ajin bosgan, sochiga oq oralagan Qosim ota u bilan bir oz suhbatlashibdi. Nazira uning ko'zlariga qaray olmasdi va o'sha payti aytgan so'zlaridan uyalib shunday dedi: "Sizga aytgan so'zlarim uchun Olloh meni jazoladi, turmushim o'xshamadi, kartoshka sotib bolalarimni boqyapman. Sizga turmushga chiqmaganimdan afsuslanaman". Bundan Qosim ota na achinishni, na xursand bo'lishni bilmay qolibdi. U uyi tomon ketar ekan, bu dunyoda hech qanday ish javobsiz qolib ketmasligini va har bir inson yaxshi va yomon ishlari uchun mukofot yoki jazo olishini tushunib yetibdi.

Qosim ota Donoxon aya bilan baxtli oila bo'lib yashashibdi.



Pokiza Abdullayeva

7-sinf o'quvchisi

SONLAR BAHSI

Kunlarning birida barcha sonlar bir kulgaga gig'ilibdi. Hamma sonlar o'zaro qizg'in suhbat quribdilar. Ammo doimgidek bu ikki sonlar, ya'ni to'qqiz va sakkiz hech qachon bunday qiziqarli suhbatlar qurmagan edilar. Sababi, to'qqiz juda ham urushqoq, manman va odobsiz edi. Uning bu salbiy xislatlari ko'pincha pand berar edi. Sakkiz-chi? Sakkiz esa kamtar, kamgap va ochiqko'ngil son edi. Lekin bu nizolarning barchasi to'qqiz tomonidan bo'lar edi.

Gapdan gap chiqib, bu ikki son bahslashib qolibdi. Bahslashib qolishining asosiy sababi: To'qqiz: "Men sendan kattaman", – deb manmanligini ko'rsatib, sakkizga haqorat qilibdi. Sakkizga bunday vaziyatlar hecham yoqmas edi. Lekin nima qilsin? To'qqiz uni sira tushinmas edi. Ikkisi boshqa sonlarning yoniga borib so'rabdi. Shunda boshqa sonlar ham sira o'yamasdan: "Albatta, to'qqiz katta-da", – deb javob beribdi. Sakkiz shunda: "Ha, mayli barchasini vaqt ko'rsatadi", – debdi.

Oradan ancha vaqt o'tibdi. Yer ham har soniyada, har daqiqada aylanganligi tufayli, sakkiz chappa holga tushib, o'zidan o'zi cheksiz belgisini bildirib qolibdi. To'qqiz esa oltiga aylanibdi. Bu voqeani ko'rgan barcha sonlar ham hayratlanib qolibdilar. To'qqiz esa hammaning oldida sharmanda bo'lib, hech qachon birovni xafa qilmaslikka va'da beribdi. Sakkiz esa bu holatdan juda ham xursand bolib ketibdi. Keyin esa barcha sonlar bir-birlarini hurmat qilib, dhil-inoq va baxtli hayot kechirbdilar.



MUNDARIJA

Pokiza Axmedjanova	
Ijod maktabi – ma'naviyat maktabi (So'zboshi).....	4
Halima Xudoyberdiyeva	
Da'vat.....	6
Vatan bayrog'i.....	6
Shunchaki.....	7
Demakki, sen shoirsan.....	8
Muqaddas ayol.....	9
Husniddin Hayit	
Halima Xudoyberdiyeva o'gitlari.....	11
Ishtifoq qo'shig'i.....	12
Tuproqhis.....	13
Nurso'z.....	14
Nuro'ylar.....	15
Nurishq.....	16
Shohsanam Qarshiyeva	
Muhabbat mash'alasi.....	18
Sen meni sevasan.....	19
Kuz.....	19
"O'ylar edim seni..."	20
"Izq'irin sovuqdan qaqshasa..."	21
Quddus Asad	
Shunchaki.....	22
"Oy yuzida dog'lanadi..."	23
Iztirob.....	23
Otamqa maktub.....	24
"Nigohimiz tutashar sekin..."	25
Elyor Xolmurodov	
Dunyo turguncha.....	27
Sevolmasam.....	28
Ko'zlarimni yumaman.....	28
Sevinch Akramjonova	
"Onam yodi" she'riga nazira.....	30
O'l kamda bahor.....	31
Marjona Abdumalikova	
"Asra onajonimni" she'riga nazira.....	32
Onam.....	33
Kotira.....	34
Yurt posbonlari.....	35
Buvim kelyapti.....	35

Do'st.....	36
Ezgulik elchisi.....	37
Burch.....	38
Muxlisa Hamidjonova	
“Yo'ldadirman” she'riga nazira.....	39
Sevgi sadoqati.....	40
Jarayon.....	40
Ona qalbi.....	42
Dilafruz G'ofurova	
Ko'ngil so'zi.....	43
Muxlisa Rajabaliyeva	
“Mehribon onam...” she'riga nazira.....	44
Onamga.....	45
Fayziniso Irisqulova	
“Vatandir bu...”	46
Yorug' yulduz.....	47
Sensiz.....	47
Abror Karimov	
“Da'vat” she'riga nazira.....	48
Onajon.....	49
Sinovli safar.....	49
Kapalak.....	51
Kamola Sindarova	
Soy.....	53
Shudring.....	53
Dard yomg'iri.....	54
Ko'nqil kengliklarida.....	55
Ko'klam ko'rki.....	56
Yurak o'tinchlari.....	56
Yorqinoy Qo'zibekova	
Ko'ngil sadosi.....	57
Tong.....	57
Sitora Naimjonova	
Suratlar suhbatı.....	59
Manzara.....	60
“Xayolimga taqqan go'zal...”	61
Kuz.....	61
Dinara Abdumajidova	
“Shunchaki” she'riga nazira.....	63

Dilfuza Valijonova	
Berkinmachoq.....	65
“Zuhrajon, qayerda aqldan...”.....	66
“Sensiz vujudimni kuydirar...”.....	66
“Kecha...”.....	67
Mahliyo Ahmadqulova	
Havas.....	69
Ijod bog'i.....	70
Vatan madhi.....	70
Bahor.....	71
Qalbimdag'i qo'shiqsan, vatan.....	71
Yoshlik shijoati.....	72
Gulsanam Turg'unboyeva	
Onamday muqaddas.....	73
Shahlo Davronbekova	
“Ha! Hozir nigohlar...”.....	74
Ustozlarga havas.....	75
Dilso'z.....	76
Ne'matillo Bobojonov	
O'zbek shoirasi.....	78
Zuhra Tojiboyeva	
“Ayol o'tib borar” she'riga nazira	79
Shahzoda Hamroqulova	
“Bugun havo aynigan...”.....	80
Tushdag'i tuyg'ular.....	81
Ko'klam isi.....	81
“Izlasam topaman ishqning...”.....	82
Gulbahor Yorqinova	
Sog'inganim sensan, bahor.....	83
“Tun qo'ynda xayol...”.....	83
Kel.....	84
“Yomq'ir savalaydi maysalar...”.....	85
Qanday qarayman.....	85
Ruhshona Saidmurodova	
“Sensiz” she'riga nazira.....	68
Xurshida Nazarova	
“Men o'tgan umrga...” she'riga nazira.....	87
Onam.....	88

Gulsanam Eshqulova	
Gunoh.....	89
Zulmat.....	91
Ishonch.....	92
Yuksakdan maktub.....	94
Hayot sovg'asi.....	97
Feruza Abdunabiyeva	
Duo ijobati.....	101
Dilnoza Jabborova	
“Oldimdan oqqan suv” she'riga nazira.....	103
“Men kichik daraxtman...”	104
Hayot kitobim.....	104
“Yolg'izlikda yolg'izlik bilan...”	105
“Yashashga intilib yashayapman...”	106
Men ketiyapman.....	106
Farangiz Yigitaliyeva	
Bahor.....	108
Jasmina Tursunaliyeva	
“Shu kunlarda bahorga zorman” she'riga nazira.....	109
Buyuk yo'l.....	110
Ona.....	110
Nozima Qosimova	
Gulistonim.....	112
Charos Shamiddinova	
Izhor.....	113
Navro'z.....	114
Bahor.....	114
Zilolabonu Rustamova	
Jilg'aman.....	116
Istak.....	117
“Osmon tiniq, biram ...”	117
“Siz oson o'ylaysiz...”	118
Gulnora Turg'unboyeva	
“Yomg'ir mungli chertmoqda...”	119
Munojat Shakarova	
Chorasizlik.....	120
Zulhayo Mingboyeva	
“Tonglarga dodlaydi namiqqan...”	121
“O'zin osib qo'yib...”	121

Abdulla Oripov.....	122
Mushtariy Toshpo'latova	
Onajon – O'zbekiston.....	123
Ko'ngil ko'klami.....	124
Maqtanchoq shaftoli.....	124
Majnuntol xayollari.....	125
Bahor bayrami.....	126
Onajonim.....	126
Xazonlar hayoti.....	126
Daraxtzor.....	127
Tabiat.....	127
Surayyo Abdunabiyeva	
Yurtim madhi.....	129
Qalam va o'chirg'ich.....	130
Yurtsevar shoir.....	130
She'riyat qirolichasi.....	130
Hayot sigrati.....	131
“Omon bo'ling” she'riga nazira.....	132
Ruxshona Abdullajonova	
Vatan hissi.....	133
“Ko'rjanmiding ko'zlarimda yosh” she'riga nazira.....	134
“Qushlar ham yig'lar” she'riga nazira.....	134
Gulsanam Norqulova	
Ko'klam	136
Osmon ko'zyoshi.....	136
Dilnoza Eshqulova	
Bayroq.....	138
Odina Yo'lchiyeva	
Qalbimdag'i ardoq'im ustoz.....	139
“Qushlarning kuylashi ularshar...”	139
Yolg'on.....	140
Vatan.....	140
Unitilmas saboq.....	141
Qosim ota.....	142
Pokiza Abdullayeva	
Sonlar bahsi.....	145



Ko'ngil qo'shiqlari

IJODKORLAR BAYOZI

Muharrir: Husniddin Hayit
Texnik muharrir: Ahmad To'ra
Dizayner: Muhammadxon Yusupov
Musahhihlar: Quddus Asad,
O'g'ilnor Ro'ziyeva

«IJOD NASHR»
Nashriyot litsenziyasi AA № 0050.
Toshkent sh. Yunusubod tumani,
Sohibkor ko'chasi, 1-uy
Berilgan vaqt 15.06.2020

Bosishga 2022-yil 16-mayda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 1/₃₂. Ofset bosma.
"Comorant Infant" garniturasi.
Nashriyot bosma tabog'i 4.75.
Adadi 300



Bog'lanish uchun:
+99897 765-56-86